

Matluba XADJAMURATOVA

**O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI.
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING
DEMOGRAFIK TARIXI**



O'quv qo'llanma

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

XADJAMURATOVA MATLYUBA XASHIMOVNA

O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI.
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING
DEMOGRAFIK TARIXI
(1991-2006 yy.)

O'quv qo'llanma
Bakalavriaturaning barcha ta'lif yo'naliishlari uchun

Andijon - 2022

Tuzuvchilar:

M.X. Xadjamuratova – Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti,
tarix fanlari nomzodi

Mas'ul muxarrir:

R.H.Murtazayeva - O'zMU professori, tarix fanlari doktori

Taqrizchilar:

O.K. Komilov - ADU professori, tarix fanlari doktori
B.N. Batirova - ADTI dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Mazkur o'quv qo'llanmada mustaqillik yillarda demografik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari, O'zbekiston Respublikasidagi demografik jarayonlarning hududiy tafovutlari, migratsiya jarayonlari masalasi chuqur tahlil etiladi.

O'quv qo'llanma oliv o'quv yurtlarining talabalari, shuningdek, O'zbekistonning eng yangi tarixi bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljalangan.

O'QUV ADABIYOTINING NASHR RUXSATNOMASI

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 20.22 yil "13" — may dagi "166" -sonli buyrug'iiga asosan

M.X.Xadjamuratova
(muallifning familyast, ismi-sharifi)
Barcha ta'lif yo'naliishi uchun

(ta'lif yo'naliishi (mutaxassisligi))

ning

talabalari (o'quvchilar) uchun tavsiya etilgan
O'zbekistoning eng yangi tarixi. O'zbekiston Respublikasining

(o'quv adabiyyotining nomi va turli darslik, o'quv qo'llanmasi)
demografik tarix (1991-2006 yy.) nomli o'quv qo'llanmasi

ga

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan
litzenziya berilgan nashriyotlarda nashr etishga ruxsat
berildi.

Vazir  A. Toshkulov

(imzo)

Ro'yxatga olish raqami

— 166 – 729 —



SO‘Z BOSHI

Mustaqillik yillarda O‘zbekiston tarixiga e’tibor kuchaydi. O‘zbekistonning eng yangi tarixi fani ta’lim tizimining barcha pog’onalarida, jumladan, oliv o‘quv yurtlarida asosiy fanlardan biri sifatida o‘qitila boshladi. Chunonchi, Respublikaning demografik jarayonlarini tadqiq etish zamonaviy tarixshunoslik fanining muhim vazifalaridan biriga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta’kidlaganidek:-yurtimizda boshlangan keng qamrovli islohotlar, yangi O‘zbekistonni barpo etish sari tashlayotgan dadil qadamlarimizning bardavom bo‘lishini ta’minalash eng asosiy vazifamiz bo‘lishi shart.¹. Shu maqsadda “islohotlarimiz samarasini har bir inson o‘z hayotida his etishi”² uchun siyosat yuritish katta ijobiy natijalarga turtki bo‘lmoqda.

Darhaqiqat, mustaqillik yillarda O‘zbekiston tarixini barcha davrlarini yangicha qarashlar, talqinlar asosida yoritib beruvchi qator darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar ko‘plab chop etildi, chunonchi mustaqillik davri demografik tarixini o‘zida aks ettiruvchi adabiyotlar nashr etildi. Jumladan respublikani demografik tarixini o‘rganib, saboq olish kelgusi avlodlar uchun foydadan xoli emas.

O‘zbekiston Respublikasining demografik tarixiga oid ushbu qo‘llanma mualllifning ilmiy tadqiqotlari natijasida bunyodga kelgan bo‘lib, unda O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi, viloyatlar davlat statistika boshqarmalarining arxiv xujjalari, matbuot materiallari, e’lon qilingan hujjat va materiallar to‘plamlari, shuningdek normativ manbalarning tahlili asosida 1991-2006 yillarda O‘zbekiston Respublikasida demografik jarayonlarning kechishi o‘rganilgan, xulosalar berilgan. Ya’ni aholini tug‘ilish, o‘lim holati, o‘sish sur’atlari, nikoh va ajralish, avlodlar almashishi, aholining o‘rtacha umr ko‘rishi, yosh, jins,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 25 yanvar, 27 bet

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. –Toshkent, 2020 yil 29 dekabr, -B. 19.

milliy, oilaviy, hududiy, ijtimoiy tarkibi, migratsiya, urbanizatsiya, mehnat resurslari hamda ularni ish bilan ta'minlanish darajasi, aholining milliy tarkibini o'zgarishida migrastiyan tutgan o'rni, aholi migrastiyasida mehnatga layoqatlilar darajasi, chet el davlatlarida O'zbekiston Respublikasi aholisining mehnat qilish faoliyati kabi masalalar keng yoritiladi.

Shu asosda respublika demografik vaziyatining o'ziga xosligining boshqa davrlardan farqli xususiyati keng yoritilib berilgan, ya'ni aholi sonining o'sish sur'atini pasayishi, tug'ilish, o'limning kamayishi, zichligi, hududiy joylashuvini o'zgarishi, yosh, jins tarkibidagi mutanosiblik, o'rtacha umr ko'rish darajasining ortishi, nikoh va ajralishning kamayishi, shahar aholisi o'sishining qishloq aholisiga nisbatan sekinlashishi, migratsiyaning faollashuvi aniq faktlar asosida isbotlangan. Qo'llanma demografiya sohasiga oid bilimlarni yanada chuqurlashtirishga yordam beradi.

I. MUSTAQILLIK YILLARIDA DEMOGRAFIK JARAYONLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

1.1. O'zbekiston Respublikasidagi demografik vaziyat: bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagi o'zgarishlar

Demografiya yunoncha so'zlardan olingan bo'lib, "demos" – xalq, "grafiya" – yozaman¹, ya'ni "xalq haqida yozaman" ma'nosini anglatadi. Demografiya fan sifatida (yoki uning asoslarini) shakllanib va rivojlanib borayotganiga uch yuz yildan oshdi.² Demografik vaziyat aholini tug'ilish, o'lim holati, o'sish sur'atlari, nikoh va ajralish, avlodlar almashishi, aholining o'rtacha umr ko'rishi, yosh, jins, milliy, oilaviy, hududiy, ijtimoiy tarkibi, migratsiya, urbanizatsiya, mehnat resurslari hamda ularni ish bilan ta'minlanish darajasi kabilarning umumiy ko'rinishidir.

Demografik jarayonlar – insonlarning hayotida ularning avlodlarini almashuvi bilan bog'liq bo'lgan voqealarning kechishi³dan iborat. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillaridagi demografik jarayonlar o'ziga xosligi bilan boshqa davrlardan farqlanadi. Mustaqil taraqqiyot yo'lining asosiy maqsadi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bu yo'nalishga O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan besh tamoyil asos qilib olindi.

Beshta asosiy qoida O'zbekiston davlat qurilishi va iqtisodiyotini isloh qilish dasturining o'zagi⁴ bo'ldi. Haqiqatda, respublika bosib o'tgan mustaqil taraqqiyot yo'li buni isbotladi, milliy model o'zini oqladi.

¹<http://ru.wikipedia.org/wiki>; Medkov V. Demografiya. Uchebnik. –M.: Infra, 2003. –S.8.

²Valentey D.I., Kvasha A.YA. Osnovi demografi. –M.: Misli, 1989. –S.11.

³Bo'riyeva M.R., Yuldasheva M.A. Demografiya muammolari. O'quv qo'llanma. –Toshkent, 2003. –B.10.

⁴Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –Toshkent: O'zbekiston, 1999. –B.101.

Aholimizning o‘rtacha umr ko‘rish darajasi so‘nggi yigirma yil davomida 67 yoshdan 73^{*} yoshga yetganining o‘zi ko‘p narsadan dalolat beradi.¹ Jumladan, ayollarning umr ko‘rishi ... 75 yoshga², erkaklar o‘rtasida 73 yoshga³ yetdi. Onalar o‘limi 2 barobardan ziyod, bolalar o‘limi esa 3 barobar kamaydi⁴.

O‘zbekiston tug‘ilish darajasi va aholining tabiiy o‘sishi yuqori bo‘lgan mamlakatlar jumlasiga kiradi.⁵ Aholi sonining jadal ko‘payib borishi azaldan O‘zbekistonga xos xususiyat bo‘lib kelgan. Masalan, 1991 yili aholi soni 20607,7 mingga, 2006 yilda esa 26312,7 mingga⁶ yetdi (1-ilova).

Darhaqiqat, tug‘ilish darajasining yuqoriligi, albatta, aholi orasida serfarzandlikka moyil bo‘lgan o‘zbeklar va mahalliy millat vakillarining ko‘pchilikni tashkil etishi, aholini yarmidan ko‘pi qishloqlarda yashashi, jins tarkibini ijobiy tomonga o‘zgarishi bilan izohlanadi.

Boshqa xalqlardan farqli o‘laroq, mahalliy millatlar jumladan, o‘zbeklar e’tiqod qiladigan islom dini ham, asrlardan beri shakllanib kelgan urf-odatlar ham ko‘p bolalikni qo‘llab-quvvatlaydi. Xalqimizni nikohni muqaddas deb hisoblashi va oila qurib, farzand ko‘rishga intilishi o‘zbek oilalarida tug‘ilishning yuqori darajada saqlanib qolishiga olib keluvchi omillardandir.⁷

^{*}2010 yil hisobida – muallif.

¹Karimov I.A.O‘zbekistonning 19 yilligiga bag‘ishlangan tuntanali marosimdag‘i tubrik so‘zi //Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyoti-ning asosiy mezonidir. –Toshkent: O‘zbekiston, 2011. 19-jild. –B.5.

²Karimov I.A. BMT Bosh Assambliyasining mingyllik rivojlanish maqsadiga bag‘ishlangan oly darajadagi yalpi majlisidagi mutq. Nyu-York shahri. 2010, 20 sentabr //Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. –Toshkent: O‘zbekiston, 2011. 19-jild. –B.18; Adolat. 2010, 24 sentabr. –№40(795) –B.1.

³Karimov I.A. Buyuk va muqaddas vatanning ulug‘ bayrami. Birinchi Prezident I.Karimovning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdag‘i tubrik so‘zi /Xalq so‘zi, 2011, 1 sentabr. –№171 (5358). –B.1.

⁴Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konseptsiyasini mavzusidagi xalqaro ilmiy-analitik konferentsiya ischchirokchilariga ma‘ruza //Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. –Toshkent: O‘zbekiston, 2011. 19-jild. –B.293.

⁵Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. –Toshkent: O‘zbekiston, 1991. –B.90.

⁶Chislennost naseleniya Uzbekistana. Goskomstat Uzbekistana. Stat. sbor. –Tashkent, 2007. –S.58.

⁷Bobojonova D. O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (70-80 yillar misolida). –Toshkent: Sharq, 1999. –B.122.

Sovet tuzumi sharoitida yetilib qolgan muammolar, ularni bartaraf etish davridagi qiyinchiliklar, iqtisodiyotni izga tushirish uchun ketgan vaqt oralig‘idagi iqtisodiy muammolar, mustaqillik davrida yurtimizda sodir bo‘layotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy va boshqa o‘zgarishlar o‘z navbatida respublikaning demografik jarayonlarini shakllanishiga ta’sirini ko‘rsatdi.

O‘zbekistonning chinakam mustaqilligiga erishishdan iborat o‘z yo‘li respublikani rivojlantirishning ... o‘ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarini har tomonlama hisobga olishga asoslanadi.¹ Yuqorida ta’kidlanganidek, ushbu hususiyatlardan biri respublika demografik vaziyatining o‘ziga xosligi bo‘lib, boshqa davrlardan farq qiladi, ya’ni aholi sonining o‘sish sur’atini pasayishi, tug‘ilish, o‘limning kamayishi, zichligi, hududiy joylashuvini o‘zgarishi, yosh, jins tarkibidagi mutanosiblik, o‘rtacha umr ko‘rish darajasining ortishi, nikoh va ajralishning kamayishi, shahar aholisi o‘sishining qishloq aholisiga nisbatan sekinlashishi, migratsiyaning faollashuvi bilan izohlanadi. O‘zbekistonning demografik vaziyati aholining o‘sish sur’atlarida namoyon bo‘ladi.

Statistik ma’lumotlarning ko‘rsatishicha, 1991-2006 yillarda O‘zbekiston aholisi 5,7 million kishiga ko‘paydi. Qishloq aholisining mutlaq soni 4,8 million kishiga, shahar aholisining soni 1,2 million kishiga ko‘paydi.²

Aholi soni bo‘yicha O‘zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida birinchi, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) davlatlari orasida uchinchi o‘rinni egallagan. Aholi eng ko‘p hudud Rossiya Federatsiyasi bo‘lib, MDH aholisining yarmidan ko‘pini (51,6 % i) tashkil etgan. Ukrainada MDH aholisining 17,3 foizi yashagan va aholi soni bo‘yicha Rossiyadan keyingi ikkinchi o‘rinni egallagan. Bundan tashqari,

¹Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. –Toshkent: O‘zbekiston, 1999. –B.11.

²Chislennost naseleniya Uzbekistana. Goskomstat Uzbekistana. Stat. sbor. –Tashkent, 2007. –8.57.

MDH aholisini 5,3 foizini Qozog‘iston Respublikasi, 3,6 foizini Belorussiya, 2,9 foizini Ozarbayjon, 2,3 foizini Tojikiston, qolgan sakkiz foizini Qirg‘iziston, Gruziya, Turkmaniston, Armaniston va Moldaviya Respublikalarining aholisi tashkil etgan. O‘zbekiston aholisi esa MDH aholisining to‘qqiz foizidan iborat bo‘lgan, maydoni Rossiya, Qozog‘iston, Ukraina, Turkmanistondan kichik hajmda, aholi zichligi bo‘yicha Armaniston, Moldaviya, Ozarbayjon, Ukraina, Gruziyadan keyingi o‘rinni egallaydi (1-rasm).¹

O‘zbekistonda aholi sonining o‘sishi MDH mamlakatlari ichida (Turk-maniston va Tojikiston Respublikalaridan keyin) uchinchi o‘rinda bo‘lgan. Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Gruziya, Moldaviya davlatlarida aholining kamayib borishi kuzatiladi.² O‘zbekistonda Markaziy Osiyoning 42 foiz aholisi yashaydi va u aholi soni bo‘yicha ushbu mintaqaning eng yirik davlati hisoblanadi. O‘zbekiston aholisi soni Qozog‘istonga nisbatan 1,4 marta, Tojikistonga nisbatan 5,2 marta, Qirg‘izistonga nisbatan 3,9 marta va Turkmanistonga nisbatan 5,2 marta ko‘pdir.³

O‘zbekistonda aholi sonining mutlaq o‘sishi 1990-1995 yillarda o‘rtacha yiliga 500 ming kishini tashkil etgan.⁴ Keyingi yillarda bu ko‘rsatkich yiliga o‘rta hisobda 354,1 ming kishiga to‘g‘ri kelgan.⁵

Natijada doimiy aholining o‘sish sur’ati 1990-1996 yillardagi 13,3 % dan 1997-2006 yillarda 11,8 % gacha pasaygan, o‘rtacha yillik o‘sish esa mos ravishda 2,1 % dan 1,25 % gacha pasaydi.⁶ Tug‘ilishning kamayib borishi besh-olti va

¹Naseleniye i usloviya jizni v stranax sodrujestva nezavisimix gosudarstv. Staticheskiy sbornik. Mejgosudarstvennyi statisticheskiy komitet sodrujestva nezavisimix gosudarstv. –M.: 2002. –S.17.

²O‘zbekiston yillik statistik to‘plami. –Toshkent, 2004. –B.381.

³Mamaraimov Q. Agrar sohada iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonida mehnat resurslaridan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari. Iqt. fan. nom. diss. ... –Toshkent, 2004. –B.24.

⁴Otamirzaev O., Qayumov A. O‘zbekiston aholisi: demografik vaziyat va siyosat //Iqtisod va hisobot. –Toshkent, 1996. 8-son. –B.56.

⁵Chislennost naseleniya Uzbekistana. Goskomstat Uzbekistana. Stat. sbor. –Tashkent, 2007. –S.50-58.

⁶Murtazina R. Migratsiya v Uzbekistane: sovremennoyaya situatsiya i napravleniya yevo regulirovaniye //O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. –Toshkent, 2006. 6-son. –B.54.

undan ko‘p farzandli oilalar salmog‘ining qisqarib borishida ham kuzatiladi. Masalan, 1990 yili bu ko‘rsatkich 14,3 foizni va 1995 yili 6,2 foizni tashkil qildi.¹

Tadqiqot yillarida, shaharlarga nisbatan qishloqlarda aholi salmog‘i va tabiiy o‘sishi yuqori bo‘lgan. Respublika shahar aholisida tug‘ilish hajmi qishloq aholisiga nisbatan kam va ayni paytda uning migratsiya jarayonlarida ishtiroki yuqori bo‘lgan. Natijada aholi sonida qishloqlarning ulushi baland bo‘lib kelgan.

Mamlakatimizning mustaqillikdan avvalgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tarixi respublikada urbanizatsiya jarayonlarini shakllanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. 2001 yilda respublikada 227² ta shahar va shaharchalar mavjud bo‘lgan. 2006 yilga kelib ularning soni 233³ tadan iborat bo‘lgan.

Tadqiqot yillarida respublika shahar aholisi umumiy sonining o‘sishga moyilligi davom etsada, so‘nggi yillarda umumiy aholi sonidagi salmog‘i avvalgi yillarga nisbatan pasayib borgan. Jumladan, 1991 yilda aholining 40,4⁴ foizi, 2006 yilda esa 36,1⁵ foizi shaharlarda istiqomat qilgan.

O‘rganilayotgan davrda aholini demografik salohiyatidagi o‘zgarishlar respublikaning turli hududlarida o‘ziga xoslik kasb etgan. Mamlakatimizni eng industrlashgan, sanoat korxonalari, transport tarmoqlari rivojlangan hududlarida shahar aholisining salmog‘i yuqori, demografik holati ham o‘ziga xos. Chunonchi, respublika miqyosida eng ko‘p shahar aholisi Toshkent shahrida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent, Navoiy, Namangan viloyatlarida mujassamlashgan bo‘lsa, qolgan barcha viloyatlarda urbanizatsiya darajasi respublika darajasidan past ko‘rsatkichda edi. Ushbu holat ko‘proq Qashqadaryo, Samarqand, Xorazm viloyatlarida kuzatiladi. Bu borada

¹Bo‘riyeva M. Aholi, oila va iqtisod //Iqtisod va hayot.-Toshkent, 2002. 4-son. -B.54.

²O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganish. -Toshkent: O‘zbekiston, 2001. -B.26.

³o‘sha joyda.-B.125.

⁴Ubaydullaeva R., Ata-Mirzaev O., Umarova N. O‘zbekiston demografik jarayonlari va aboli bandligi. -Toshkent: Universitet, 2006. -B.8.

⁵Chislennost naseleniya Uzbekistana. Goskomstat Uzbekistana. Stat.sbor. -Tashkent, 2007. -S.58.

Surxondaryo viloyati ajralib turadi. Viloyatda shaharliklar atiga 19,2 foizni tashkil etgan. Bu esa mamlakatimiz miqyosidagi eng past ko'rsatkich hisoblanadi (4-ilova).

Bunga sabab, ushbu mintaqalar O'zbekiston hududining voxa va vodiylarida joylashgan bo'lib, dehqonchilik qilish uchun imkoniyatlар avvalo, unumdon yerlarning ko'pligi aholining asosiy qismini qishloq hududlarida joylanishiga zamin yaratgan. Bundan tashqari, qishloqlarda tub joy aholisining yashab turgan joylariga bog'lanib qolganligi bu joylarda migratsiya harakatini cheklaydi.

O'zbekistonda 2006 yilda 1991 yilga nisbatan urbanizatsiya darajasi 4,3 foizga kamayishi Samarqand, Toshkent, Xorazm, Buxoro, Sirdaryo viloyatlarda shahar aholisini boshqa viloyatlarga nisbatan ko'proq darajada kamaygani bilan bog'liq. Tug'ilishni kamayib borishi va tashqi migratsiya ta'sirida ushbu viloyatlarda shahar aholisining qisqarishi yuz berdi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax va Surxondaryo viloyatlarini urbanizatsiya darajasi respublika darajasidan farq qilib, 1991 yilga nisbatan urbanizatsiya darajasi pasaymagan. Bu holat shahar aholisini o'sishida qishloqlarning ta'siri ko'pligi bilan izohlanadi. Chunki, yuqorida aytib o'tilgan hududlarda shaharlarning ko'pchiligi qishloq hududlari bilan qo'shilib ketgan, ya'ni qishloq tumanlarini markazi bo'lgan.

Tayanch so'zlar: demografiya, demografik jarayonlar, tug'ilish, aholining o'sish sur'ati, o'lim holati, avlodlar almashishi, oila, aholining zichligi, hududiy joylashuvni o'zgarishi, yosh, jins tarkibidagi mutanosiblik, o'rtacha umr ko'rish, nikoh, ajralish, urbanizatsiya, migratsiya.

Savol va topshiriqlar:

- 1.Demografiya so'zi qanday ma'noni anglatadi?
- 2.Demografik vaziyat deganda nimani tushunasiz?

- 3.Demografik jarayonlar nimalarda aks etadi?
- 4.O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo‘lini asosiy maqsadi nimalardan iborat?
- 5.Taraqqiyotning “O‘zbek modeli” ni sharhlab bering.
- 6.O‘zbekiston aholisining o‘rtacha umr ko‘rish darajasi mustaqillikning dastlabki yillarda qancha yoshni tashkil etar edi?
7. So‘nggi yigirma yil davomida aholining o‘rtacha umr ko‘rish darajasi qancha yoshga yetdi?
- 8.Ayollarning umr ko‘rish davomiyligi qanchaga ko‘tarildi?
- 9.Erkaklar orasida o‘rtacha umr ko‘rish darajasi necha yoshni tashkil etdi?
- 10.Onalar va bolalar o‘limi qancha barobarga kamaydi?
11. O‘zbekistonni tug‘ilish darajasi va aholining tabiiy o‘sishi yuqori bo‘lgan mamlakatlar sarasiga kiritsa bo‘ladimi?
- 12.1991 yili O‘zbekistonda aholi soni qancha edi?
13. 2006 yilda O‘zbekiston Respublikasida aholi soni qanchaga yetdi?
- 14.O‘zbekistonda tug‘ilish darajasining yuqoriligidagi sabab nimada?
15. O‘zbek oilalarida tug‘ilishning yuqori darajada saqlanib qolishiga olib keluvchi omillarni sanab o‘ting.
- 16.Mustaqillikning dastlabki yillarda qanday muammo va o‘zgarishlar o‘z navbatida respublikaning demografik jarayonlarini shakllanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi?
- 17.O‘zbekistonning chinakam mustaqilligiga erishishdan iborat o‘z yo‘li respublikani rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarini har tomonlama hisobga olishga asoslanadi, ular nimalardan iborat?
18. 1991-2006 yillarda O‘zbekiston aholisi 5,7 million kishiga ko‘paydi. Qishloq aholisining mutlaq soni 4,8 million kishiga, shahar aholisining soni necha million kishiga ko‘paydi?

19. Aholi soni bo'yicha O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida nechanchi o'rinni egallaydi?
20. Aholi soni bo'yicha O'zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) davlatlari orasida nechanchi o'rinni egallagan?
21. MDHning qaysi davlatlarida aholining kamayib borishi kuzatiladi?
22. O'zbekistonda aholi sonining o'sishi MDH mamlakatlari ichida qaysi davlatlardan keyin uchinchi o'rinda bo'lgan?
23. O'zbekistonda Markaziy Osiyoning necha foiz aholisi yashaydi?
24. O'zbekiston aholisi soni Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmanistonga nisbatan necha marta ko'p?
25. Aholi eng ko'p hudud Rossiya Federatsiyasi bo'lib, MDH aholisining yarmidan ko'pini, ya'ni qancha foizini tashkil etgan?
26. Ukrainada MDH aholisining 17,3 foizi yashagan va aholi soni bo'yicha qaysi davlatdan keyingi o'rinni egallagan?
27. MDH aholisini qancha foizini Qozog'iston Respublikasi aholisi tashkil etadi?
28. Ozarbayjon aholisi MDH aholisini qancha foizini tashkil etgan?
29. MDH aholisini qancha foizini Belorussiya aholisi tashkil etgan?
30. MDH aholisini qancha foizini Tojikiston aholisi tashkil etgan?
31. MDH aholisini qolgan sakkiz foizini qaysi Respublikalarning aholisi tashkil etgan?
32. O'zbekiston aholisi esa MDH aholisining necha foizidan iborat bo'lgan? 33. O'zbekiston Respublikasining maydoni Rossiya, Qozog'iston, Ukraina, Turkmanistondan kattami yoki kichik hajmdami?

34. O‘zbekiston Respublikasi aholi zichligi bo‘yicha Armaniston, Moldaviya, Ozarbayjon, Ukraina, Gruziyadan keyingi o‘rinni egallaydimi yoki aksinchami?
35. O‘zbekistonda aholi sonining mutlaq o‘sishi 1990-1995 yillarda o‘rtacha yiliga necha ming kishini tashkil etgan?
36. Doimiy aholining o‘sish sur’ati 1990-1996 yillardagi 13,3 % dan 1997-2006 yillarda 11,8 % gacha pasaygan, o‘rtacha yillik o‘sish esa mos ravishda pasaydimi, ko‘paydimi?
37. 1991-2006 yillarda shaharlarga nisbatan qishloqlarda aholi salmog‘i va tabiiy o‘sishi qanday bo‘lgan?
38. Respublikada tug‘ilish hajmi nisbatan kam va ayni paytda uning aholining migratsiya jarayonlarida ishtiroki yuqori bo‘lgan hududlar deganda shahar aholisi nazarda tutiladimi yoki qishloq aholisimi?
39. 2001 yilda respublikada 227ta shahar va shaharchalar mavjud bo‘lgan. 2006 yilga kelib ularning soni nechtadan iborat bo‘lgan?
40. Respublikamiz miqyosida eng ko‘p shahar aholisi qaysi hududlarda yuqori bo‘lgan?
41. Eng kam shahar aholisi respublikamizning qaysi hududi hisoblanadi?
42. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jizzax va Surxondaryo viloyatlarini urbanizatsiya darajasi respublika darajasidan farq qilib, 1991 yilga nisbatan urbanizatsiya darajasi pasaymagan. Bu holat qanday izohlanadi?

1.2. Aholining joylashishi va demografik salohiyati

O'zbekiston mintaqalarida demografik jarayonlar kuzatilganda har birining tabiiy sharoiti va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlariga mos ravishda turlicha shakllanib borgan. Bu aholining joylanishida ham namoyon bo'ladi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, 1993 yilda Toshkent shahri va Toshkent viloyatida respublika aholisining qariyb 23 % yashagan. Bu ko'rsatkich Farg'ona vodiysi viloyatlarida 26,9 % ga, Zarafshon vodiysi viloyatlarida 19,7 % ga, Jizzax cho'li va Mirzacho'lda 6,3 % ga, O'zbekistonning janubiy viloyatlarida 13,4 % ga va Quyi Amudaryoda 10,8% ga teng bo'lgan.¹

2006 yilgi statistik ma'lumotlariga ko'ra, Farg'ona mintaqasida O'zbekiston aholisining 27,9 foizi, Zarafshonda 19,9 foizi, Toshkent regionida 17,5 foizi, Janubiy mintaqada 16,5 foizi, Quyi Amudaryo regionida 11,5 foizi, Mirzacho'l mintaqasida esa 6,6 foizi tarkib topgan.²

Darhaqiqat, O'zbekiston bo'yicha salkam uch million aholi bo'lgan hududlardan biri Samarqand viloyati bo'lsa, yana biri Farg'ona viloyati edi. Shuningdek, maydonining katta qismi cho'llardan iborat Navoiy viloyatida respublika aholisining 3,1 foizi yashasa, maydoni eng kichik bo'lgan Andijon viloyatida mamlakatimiz aholisining 9,0 foizi istiqomat qilgan.³

Mintaqalarda aholi sonini o'sishining yilma-yil tahliliga ko'ra, Zarafshon regioni aholi sonini miqdori bo'yicha 1994 yildan boshlab Toshkent vohasidan ildamlab ketgan. Albatta, ushbu holatni tug'ilish, o'lim, tabiiy ko'payish darajalari va migratsiya harakatlarining manfiy qoldig'i bilan izohlash mumkin. Masalan, 1991-2006 yillar orasida Zarafshon vohasi

¹Qoraxonov M., Qayumov A. O'zbekistonning demografik muammolarini va aholi geografiyasini. –Toshkent: O'zbekiston, 1994. –B.13.

²Chislennost naseleniya Uzbekistana. Goskomstat Uzbekistana. Stat. sbor. –Tashkent, 2007. –S.58.

³Statisticheskiy yejegodnik regionov Respublikи Uzbekistana. Stat. sbor. –Tashkent, 2006. –S.13.

tabiiy ko‘payishning o‘rtacha darajasi bo‘yicha Toshkent regionidan 7,8 promille¹, tug‘ilishning o‘rtacha ko‘rsatkichi bo‘yicha 9,5 promille farq bilan ijobjiy natijaga erishgan. O‘limning o‘rtacha darajasi esa Toshkent vohasida Zarafshon mintaqasidan 2,7 promillega ko‘p edi.²

1991-2006 yillar orasida respublikada vodiy aholisining ulushi 1,1 foizga ko‘paygan. Bu daraja Janubiy mintaqada 1,9 foizga, Quyi Amudaryo va Zarafshon mintaqasida 0,1 foizga ko‘paygan bo‘lsa, Toshkent mintaqasi aholisining respublikadagi salmog‘i 3,2 foizga qisqargan.

Aholini ko‘payishi O‘zbekistonning yuqori ma’muriy-hududiy tuzilmalarida o‘zgacha ko‘rinish kasb etgan. 1991 yilda Farg‘ona viloyatida Samarqand viloyatidan biroz ko‘proq aholi yashagan. Toshkent viloyati va Toshkent shahri aholisi ham ushbu yillarda nisbatan yetakchi o‘rinni egallagan. Aholining salmog‘i jihatidan eng past ko‘rsatkich Sirdaryo, Navoiy, Jizzax viloyatlarida kuzatilgan. Darhaqiqat, ushbu hududlarda XX asrning 70-yillarida Mirzacho‘lni o‘zlashtirilishi natijasida aholi ko‘chib kela boshlaganidan keyingina uning demografik holati o‘zgargan.

Aholining demografik salohiyati past hududlarning ayrimlari sobiq tuzumning bo‘sh yerlarni o‘zlashtirish siyosati natijasida tashkil etilgan tumanlar bo‘lganligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, respublikani mustaqillik yillaridagi demografik siyosati natijasida aholi talablarining inobatga olinishi va hududlarning imkoniyatidan kelib chiqib bir tumanni ikkiga bo‘linishi ham tuman aholisi sonida o‘z aksini ko‘rsatadi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, 1991 yilda Jizzax, Navoiy, Sirdaryo viloyatlarida aholi soni bir milliondan kam edi. Ushbu viloyatlar orasida Jizzax viloyati aholisi ko‘payib, 2002 yildan boshlab bir milliondan ortiq aholi yashaydigan viloyatlar (Surxondaryo,

¹Izoh: yosh tarkibiga ko‘ra har 1000 nafar ayolga nisbatan tirik tug‘ilganlar.

²Estestvennoye dvijeniye naseleniya Respubliki Uzbekistan. Statisticheskiy sbornik. Goskomstat Uzbekistana. – Tashkent, 2006. –S.95.

Buxoro, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi) tarkibidan o'rinn oldi. Namangan, Qashqadaryo, Andijon viloyatlarida aholi bir yarim milliondan ko'p edi. Aholisi ikki milliondan ortiq hududlar Farg'ona, Samarqand, Toshkent viloyati va Toshkent shahri hisoblangan.

2006 yilga kelib, O'zbekiston Respublikasi hududlarida o'zining demografik salohiyatiga ko'ra Samarqand viloyati (1998 yildan boshlab) yetakchilik qila boshladi, keyingi o'rirlarni Farg'ona, Andijon, Toshkent viloyatlari egalladi. Sirdaryo, Navoiy viloyatlaridan tashqari qolgan barcha hududlarda aholi soni bir milliondan ortdi. Ikki milliondan ko'p aholi mavjud bo'lgan Toshkent shahri, Toshkent, Farg'ona viloyatlari tarkibiga Namangan, Andijon, Qashqadaryo viloyatlari qo'shildi. Ular ichida Qashqadaryo va Andijon viloyatlarida aholi soni 1997 yilda ikki milliondan ortgan bo'lsa, Namangan viloyati esa bu darajaga 2003 yilda erishdi. Farg'ona va Samarqand viloyatlarida mavjud aholi salkam uch million edi.

Olingan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 1991 yilda respublika aholisi bir yilda 101,9 foizga o'sdi. Bu holat mintaqalarda turlicha bo'lib, respublika ko'rsatkichlaridan yuqori ko'rinish Janubiy, Quyi Amudaryo, Farg'ona, Zarafshon regionlarida kuzatilgan. Janubiy region aholi o'sishining eng yuqori darajasiga ega bo'lib, boshqa mintaqalarni qoplash bilan birga O'zbekiston aholisini o'sishida muhim demografik ahamiyat kasb etgan. Mirzacho'l va Toshkent mintaqalarida aholi o'sishi biroz pastroq bo'lgan.¹

Viloyatlar bo'yicha Farg'ona, Navoiy, Sirdaryo, Toshkent viloyatlari aholisining o'sishi respublika ko'rsatkichlaridan past bo'lgan. Toshkent shahri aholisining o'sishi 1991 yilda manfiy tomonga o'zgargan. Bu holat o'rganilayotgan yillarda

¹Chislennost naseleniya Uzbekistana. Goskomstat Uzbekistana. Stat. sbor. -Tashkent, 2007. -S.50.

takrorlanib borgan, bunga asosan tug‘ilish darajasining pastligi va tashqi migratsiya ta’sir etgan.

Bundan tashqari, yuzaga kelgan atrof-muhitni ifloslanishi va ayrim joylarda ma’lum darajada tabiat muvozanatini buzilishi bilan bog‘liq ekologik vaziyatning keskinlashuvi demografik holatni biroz o‘zgarishiga sabab bo‘lgan. Masalan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholi o‘limi boshqa hududlarga nisbatan yuqoriqoq bo‘lib, aholini tabiiy ko‘payishiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatib kelgan.¹

Respublika aholisi soni yillar davomida turli sur’atlarda o‘sib bordi, lekin aholining o‘sish jarayoni biroz sekinlik bilan kechgan. 1992 yil 1991 yilga nisbatan 102,4 foizga o‘sgan bo‘lsa, 2006 yilga kelib bu ko‘rsatkich 101,1 foizga teng bo‘ldi, ya’ni ushbu yillar orasidagi aholi o‘sishi 207,2 ming kishiga kam edi. Demak, o‘rganilayotgan davrda respublikada demografik o‘sish sur’atlari sezilarli darajada pasayib borgan.

Albatta, aholi o‘sishida ma’lum bo‘lgan tafovutlarga demografik vaziyat, ya’ni nikoh, tug‘ilish, o‘lim, migratsiya, aholining yosh va jins tarkibidagi o‘zgaruvchanlik, shuningdek, tabiiy sharoit, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot imkoniyatlari ta’sir ko‘rsatgan. Bu hol respublikaning har bir mintaqasi o‘ziga xos demografik hususiyatlarga ega ekanligini, nafaqat region yoki viloyat balki, tuman, shahar misolida mukammal o‘rganishni talab etadi.

Tayanch so‘zlar: demografik jarayonlar, demografik salohiyat, nikoh, tug‘ilish, o‘lim, migratsiya, aholining yosh va jins tarkibi, tabiiy sharoit, ijtimoiy-iqtisodiy demografik jarayon, region, viloyat, tuman, shahar.

¹Estestvennoye dvijeniye naseleniya Respubliki Uzbekistan. –Tashkent, 2006. –S.7.

Savol va topshiriqlar:

1. 1993 yilda Toshkent shahri va Toshkent viloyatida respublika aholisining qariyb qancha foizi yashagan?
2. Mintaqalarda aholi sonini o'sishining yilma-yil tahliliga ko'ra, Zarafshon regioni aholi sonini miqdori bo'yicha 1994 yildan boshlab Toshkent vohasidan ildamlab ketgan. Buni qanlay izohlash mumkin?
3. O'zbekiston bo'yicha salkam uch million aholi bo'lgan hududlardan biri Samarqand viloyati bo'lsa, yana biri ... viloyati edi.
4. 1993 yilda O'zbekistonning janubiy viloyatlarida respublika aholisining qancha foizi yashagan?
5. 1991 yilda Farg'ona viloyatida Samarqand viloyatidan ko'proq aholi yashaganmi yoki kamroqmi?
6. Aholining demografik salohiyati past hududlarning aholisini kamligini nima bilan izohlash mumkin?
7. 1991 yilda aholi soni bir milliondan kam viloyatlarni sanang?
8. 1991 yilda aholisi ikki milliondan ortiq bo'lgan hududlar qaysi hududlar edi?
9. O'zbekiston Respublikasi hududlarida o'zining demografik salohiyatiga ko'ra 1998 yildan boshlab qaysi viloyat yetakchilik qila boshladi?
10. 1991 yilda respublika aholisi bir yilda 101,9 foizga o'sdi. Qaysi region aholi o'sishining eng yuqori darajasiga ega bo'lib, boshqa mintaqalarni qoplash bilan birga O'zbekiston aholisini o'sishida muhim demografik ahamiyat kasb etgan?
11. Respublika hududlarida aholi o'limiga sabab bo'luvchi omillarni ko'rsating.
12. Aholi o'sishida ma'lum bo'lgan tafovutlarga nimalar sabab bo'lgan?

1.3. Aholi zichligi va o'rtacha umr davomiyligi

O'rganilayotgan davrda statistik ma'lumotlarda keltirilishicha, O'zbekistonda aholi soni ko'payib borishi va uning joylashishida ayrim o'zgarishlar yuz berdi. Aholining o'rtacha zichligi jihatidan O'zbekiston MDHga kirgan qator mamlakatlardan va Markaziy Osiyodagi boshqa respublikalardan oldida turadi. Agar 1991 yilda O'zbekistonning har bir kvadrat kilometrga 46,06 kishi to'g'ri kelgan bo'lsa,¹ 2006 yilga kelib bu raqam 58,8 kishiga yetdi. Demak, aholi ko'payib borishi sababli uning zichligi ham ortib borgan. Aholining zichligi O'zbekiston hududlarida turli ko'rinishga ega. Aholining yashashi uchun qulay, azaldan o'zlashtirilgan, dehqonchilik qilish uchun sharoitlari yetarli joylarda hamda urbanizatsiya jarayonlari nisbatan yuqori, yirik markazlarga yaqin hududlarda aholi zichligi yuqori bo'lgan, sanoati sustroq rivojlanayotgan joylarda esa o'ziga xos. Cho'l mintaqalarida aholi juda siyrak yashaydi.²

Respublikaning bir kvadrat kilometrga to'rt yuzdan ortiq kishi (1991 yilda 300 mingdan ortiq) to'g'ri keladigan Andijon va Farg'onaga viloyatlari mamlakat hududining 2,4 foizini tashkil etgan. Eng yuqori zichlik qayd etilgan ushbu makonda respublika aholisining 20,0 (19,4) foizi istiqomat qilgan. Har bir kvadrat kilometrga yuz, uch yuz kishi to'g'ri keladigan hududlar Namangan, Xorazm, Samarqand, Toshkent, Sirdaryo viloyatlari bo'lib, ularda respublika aholisining 36,5 (36,4) foizi yashagan. O'zbekiston aholisining 26,3 (24,3) foizini o'z qamroviga olgan Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Buxoro viloyatlarida esa aholi joylashuvi bir kvadrat kilometrda o'ttiz, yuz kishidan iborat edi. Eng aholi siyrak joylashgan hududlar respublika

¹Ahmedov E., Saydaminova Z. O'zbekiston Respublikasi. --Toshkent: O'zbekiston, 2006. --B.21.

²Statisticheskiy yejegodnik regionov Uzbekistana. Stat. sbornik. --Tashkent, 2006. --S.12.

bo‘yicha Navoiy viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasi hisoblanib, mamlakat hududining yarmidan ko‘pini egallagan.¹

Demak, respublikaning ayrim viloyatlari orasida aholi sig‘imi bo‘yicha farq juda katta. Masalan, Andijon viloyatidagi aholi zichligi Navoiy viloyatidan 77,7 marta ko‘p hisoblangan. Ayni vaqtida Andijon viloyatida Qoraqalpog‘iston Respublikasidan 59,7 marta, Buxoro viloyatidan 14,9 marta, Jizzax viloyatidan 11,4 marta ko‘p aholi zich joylashgan.

Bunday demografik vaziyat qator muammolarni, jumladan milliy xalq an‘analaridan kelib chiqqan holda uy-joy qurilishi, fermer ho‘jaligini optimallashtirish kabi sohalarda muayyan qiyinchiliklarga olib keladi.²

Darhaqiqat, aholi sig‘imini yildan yilga ortib borishi ham ayni aholi zich hududlarda yuqori bo‘lgan. Masalan, 2006 yilda 1996 yilga nisbatan Andijon viloyatida har bir kvadrat kilometrga 81,3 kishi, Farg‘ona viloyatida 79 kishi, Namangan viloyatida 59 kishi, Xorazm viloyatida 39,1 kishi, Samarqand viloyatida 22 kishidan ortib borgan.³

Aholi demografik holatining tashhisi tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligida yaqqol namoyon bo‘ladi. Respublikada aholining o‘rtacha umr ko‘rish darajasi 1991 yilda 70,5 yoshni, 1994 yilda 68,8 yoshni tashkil etgan bo‘lsa, 2006 yilda 72,5 yoshdan iborat bo‘ldi.

1995 yildan boshlab o‘rtacha umr uzunligi yana o‘sса boshladi,⁴ ya’ni mamlakatning demografik vaziyatida tub burilish yuz berdi. Respublika hududlarida esa aholining o‘rtacha umr ko‘rish darajasi bir-biridan farqlanadi. Viloyatlar bo‘yicha 2006 yilda eng yuqori aholining o‘rtacha umr ko‘rish darajasi Jizzax viloyatida kuzatilgan. Undan keyingi daraja Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro viloyatlariga to‘g‘ri keladi.

¹Plotnost naseleniya po regionam Respublikи Uzbekistan. 2001. Stat. sbornik. –Tashkent, 2002. –S.13.

²Soliyev A. va b. O‘zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. –Tashkent: Mumtoz soz, 2010. –B.30.

³Plotnost naseleniya po regionam Respublikи Uzbekistan. Stat. sbornik. –Tashkent, 2002. –S.13.

⁴Inson taraqqiyoti to‘g‘risida ma’ruza. –Tashkent, 2005. –B.42.

Respublika bo'yicha 1991-2006 yillar tahlillariga ko'ra, mazkur yillarda o'rtacha umr ko'rish darajasi bo'yicha o'n olti holatdan o'n ikkitasida Qashqadaryo viloyati yetakchi hisoblangan, o'n ikki holat bilan ikkinchi o'rinni Jizzax viloyati, olti holat bo'yicha yuqori natija bilan uchinchi o'rinni Surxondaryo viloyati egallagan. Bu hududlarda tug'ilishni nisbatan yuqoriligi, aholi tarkibida yoshlar ulushini kattaligi, qirq, yetmish va undan yuqori yosh guruhlarining salmog'i respublikani boshqa hududlaridan past ko'rsatkichga egaligi, o'lim darajasini nisbatan pastligi bilan izohlanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Sirdaryo viloyati va Toshkent shahri aholisining o'rtacha umr ko'rish darajasida oxirgi o'rirlarni egallagan.

2006 yilda shahar aholisi bo'yicha o'rtacha umr ko'rish darajasi 71,9 yosh bo'lib, respublika darajasidan past bo'lgan. Yetakchi viloyatlar Jizzax, Qash-qadaryo, Surxondaryo, Buxoro va Samarqand hisoblanadi. Ushbu hududlar aho-lisining o'rtacha umr ko'rish darajasi respublika darajasidan yuqori edi. Eng past daraja Sirdaryo, Toshkent viloyatlarida hamda Toshkent shahrida yuz bergan. Ayniqsa, shaharlarda erkaklar o'rtasida o'rtacha umr ko'rish darajasi bo'yicha Sirdaryo viloyatida respublika bo'yicha eng past ko'rsatkich kuzatilgan.¹

Qishloq aholisining 2006 yildagi o'rtacha umr ko'rish darajasi shahar aholisi holatidan qisman farqlanadi. Bu yerda yetakchi Qashqadaryo viloyati ko'rsatkichi respublika darajasi bilan tenglashgan. Keyingi holatlarga Jizzax, Surxondaryo, Farg'ona viloyatlarini kiritish mumkin. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent, Sirdaryo viloyatlari oxirgi o'rirlarda bo'lgan. Qolgan viloyatlar respublika bo'yicha o'rtacha darajaga ega hudud sifatida e'tirof etiladi.

Statistik ma'lumotlar ko'rsatkichlari mustaqillik yillarida respublikada o'rtacha umr ko'rish darajasi ko'tarilib borayotgan

¹O'zbekistonda gender tengligi. Faktlar va raqamlar. -Toshkent, 2005. -B.26.

bo‘lsada, hali hamon ko‘pgina mamlakatlardan orqada qolayotganidan dalolat beradi, ya’ni jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi ko‘rsatkichlarga qaraganda 10-11,5 yilga kam bo‘lgan. Masalan, Yaponiyada aholining o‘rtacha umr ko‘rishi 81 yoshni, Ispaniyada 80,4 yoshni, Shvesiyada 80,1 yoshni Italiyada 79,9 yoshni tashkil etgan. Erkaklarning (ayollarning) o‘rtacha umr ko‘rishi O‘zbekistonda 70,3 yoshni (74,7 yoshni) tashkil etgan. Bu Avstriyaga nisbatan 5,7 yosh (7,1 yosh), Buyuk Britaniyaga nisbatan 5,9 (6,0 yosh), Italiyaga nisbatan 6,6 (8,2 yosh), Ispaniyaga nisbatan 6,9 (9,0 yosh), Yaponiyaga nisbatan 7,3 (9,6 yosh), Shvesiyaga nisbatan 7,6 yosh (7,7 yosh) kam demakdir.¹

1997 yilda Latviya va O‘zbekistonda erkaklarning o‘rtacha umr ko‘rish darajalarini bir-biriga yaqin ko‘rinishi namoyon bo‘lgan, ya’ni 60,8 va 60,7 yosh. Lekin, O‘zbekistonda go‘daklar o‘limining yuqoriligi Latviyaga nisbatan taxminan 4 marta ko‘p bo‘lgan bo‘lsa, ayni vaqtida O‘zbekistondagi katta yoshlilar o‘limining salmog‘i Latviyaga nisbatan past ko‘rinishi namoyon bo‘ladi.² Shuningdek, Latviyada go‘daklar o‘limining aholini o‘rtacha umr ko‘rish darajasiga kam ta’siri bilan farqli xususiyatga ega bo‘lgan. O‘zbekistonda esa katta yoshlilarga nisbatan go‘daklar o‘limining yuqoriligi uning o‘rtacha umr ko‘rish darajasiga ko‘proq ta’siri bilan izohlanadi.³

Tayanch so‘zlar: aholining zichligi, urbanizatsiya, fermer ho‘jaligi, tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi, yoshlar ulushi, go‘daklar o‘limi.

Savol va topshiriqlar:

1. Respublika hududlarida aholi zich yashashiga sabab bo‘lgan omillarni ko‘rsating.

¹O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plami. –Toshkent, 2006. –B.389.

²Borisov V. Demografiya. Uchebnik dlya vuzov. Izdaniye trete, ispravленnoye i dopolnennoye. –M.: NOTA BENE, 2003. –S.253.

³Borisov V. Demografiya. Uchebnik dlya vuzov. –M.: NOTA BENE, 1999. –S.222.

2. Respublikamizdagi qaysi hudud aholisi eng zich hudud hisoblanadi?
3. Aholi zichligi hududlarda qanday muammolarni keltirib chiqaradi?
4. 1991-2006 yillar tahlillariga ko‘ra, mazkur yillarda o‘rtacha umr ko‘rish darajasi bo‘yicha o‘n olti holatdan o‘n ikkitasida qaysi viloyat yetakchi hisoblangan?
5. 2006 yilda shahar aholisi bo‘yicha o‘rtacha umr ko‘rish darajasi necha yosh bo‘lgan?
6. 2006 yilda o‘rtacha umr ko‘rish darajasi bo‘yicha yetakchi viloyatlarni sanab o‘ting.
7. Aholining o‘rtacha umr ko‘rish darajasi bo‘yicha eng past daraja qaysi viloyatlar va shaharlarda yuz bergan?
8. Shaharlarda erkaklar o‘rtasida o‘rtacha umr ko‘rish darajasi bo‘yicha qaysi viloyatda respublika bo‘yicha eng past ko‘rsatkich kuzatilgan?
8. Yaponiyada aholining o‘rtacha umr ko‘rishi 81 yoshni, Ispaniyada 80,4 yoshni, Shvesiya va Italiyada necha yoshni tashkil etgan?
9. Erkaklarning (ayollarning) o‘rtacha umr ko‘rishi O‘zbekistonda necha yoshni tashkil etgan?
10. O‘zbekistonda erkaklarning (ayollarning) o‘rtacha umr ko‘rishi Avstriyaga nisbatan 5,7 yosh (7,1 yosh), Buyuk Britaniyaga nisbatan 5,9 (6,0 yosh), Italiyaga nisbatan 6,6 (8,2 yosh), Ispaniyaga nisbatan 6,9 (9,0 yosh), Yaponiyaga(9,6 yosh) Shvesiyaga (7,7 yosh) nisbatan necha yosh kam demakdir?
11. 1997 yilda Latviya va O‘zbekistonda erkaklarning o‘rtacha umr ko‘rish darajalarini bir-biriga yaqin ko‘rinishi namoyon bo‘lgan, ya’ni 60,8 va 60,7 yosh. Lekin, O‘zbekistonda go‘daklar o‘limining yuqoriligi Latviyaga nisbatan taxminan necha marta ko‘p?

12. Latviyada go'daklar o'limining aholini o'rtacha umr ko'rish darajasiga kam ta'siri bilan farqli xususiyatga ega bo'lgan. Bu O'zbekistonda qanday izohlanadi?

1.4. Aholining yosh va jins tarkibi

Aholining yosh tarkibi ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayonlarni o'rganish maqsadida uning yosh guruhlarga bo'linishidir. Yosh guruhi va demografik jarayonlar o'zaro bog'liq holda shakllanadi. Aholi tarkibida yoshlar (0-29 yoshda) salmog'ining yuqoriligi nikoh va tug'ilish kabi demografik jarayonlarga ijobiy ta'sir etadi.¹

Respublikada aholining 6,0 foizini ikki yoshgacha bo'lganlar tashkil etgan. Ma'lumotlarga ko'ra Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm, Sirdaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi bu borada yetakchi hisoblangan va ikki yoshgacha bo'lganlar salmog'i bo'yicha yuqori darajaga ega bo'lgan. Eng past ko'rsatkich Toshkent shahriga tegishli edi. Mazkur holat 3-15 yoshlarda ham kuzatiladi. Demak, tug'ilish darajasining yuqori yoki pastligi ushbu yosh guruhlarning miqdoriy o'zgarishlariga o'z ta'sirini ko'rsatib kelgan. Masalan, respublika aholisining 3-15 yosh tarkibini salmog'i Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida katta bo'lsa, 16-24 yoshgacha bo'lgan guruhlarning yuqori salmog'i Sirdaryo viloyatiga to'g'ri kelgan. 25-34 yosh guruhlari bo'yicha Xorazm viloyati yetakchilik qilgan. Toshkent shahri aholisi tarkibida 30-70 va undan yuqori yosh guruhlarning miqdori ko'pligi bilan farqli xususiyatlarni namoyon etgan.

Tug'ilish darajasi yuqori bo'lib kelgan Janubiy mintaqaga viloyatlarini aholisi tarkibida yoshlarning ulushi nisbatan katta

¹Bo'riyeva M. Demografiya asoslari. -Toshkent, 2001. -B.28.

bo‘lishi bilan birga, 40-70 va undan yuqori yosh tarkibini salmog‘i respublikaning boshqa guruhlari orasida eng past ko‘rsatkichga ega edi. Bu holat tug‘ilish darajasining tabiiy ko‘payishga ta’siri bilan izohlanadi.¹

Darhaqiqat, tug‘ilish darajasi past bo‘lgan hududlarda (masalan, Toshkent shahri) qariyalar soni ko‘p bo‘lsa, tug‘ilish yuqori bo‘lgan hududlardagi (misol uchun, Janubiy mintaqasi) aholi tarkibida yoshlari salmog‘ining yuqoriligi kuzatiladi. Bunday hududiy xususiyatlar yoshlarga oid davlat siyosatini va ijtimoiy himoya prinsiplarini amalga oshirishda joylardagi mahalliy davlat hokimiyati va o‘zini o‘zi boshqarish organlariga katta mas’uliyat yuklaydi.

Aholini tabiiy ko‘payishidagi sezilarli darajada pasayish mustaqillik yillarining ikkinchi davriga to‘g‘ri kelgan. Aynan, 1999 yildan boshlab bolalar sonini kamayishi kuzatila boshlagan. Bu holat tug‘ilish darajasining keskin kamaygani bilan izohlanadi. 16-59 yoshlilar esa o‘rganilayotgan davrda 8,8 foizga ortgan. Ushbu holat 1950-1990 yillar oralig‘ida respublika aholisining tabiiy ko‘payishidagi salohiyat bilan bog‘liqdir. Qariyalar soni 1992 yilda 1991 yilga nisbatan 34,3 ming kishiga ko‘paygan bo‘lsa, 2006 yilda 2005 yilga nisbatan 20,3 ming kishiga ortgan. Natijada qariyalarni aholi sonidagi ulushini kamayishi 2004 yildan kuzatila boshladi.

Demak, mustaqillik yillarida aholining yosh tarkibidagi o‘zgarishlar quyidagilarda o‘z aksini topgan.

1. O‘rganilayotgan davrning deyarli ikkinchi yarmidan boshlab (1999 yildan) respublikada tug‘ilish ko‘rsatkichlarining sezilarli kamayishi, mehnat yoshida bo‘lmagan aholi, ya’ni bolalar sonining qisqarib borishi kuzatiladi.

2. Aholining eng yuqori sur’atlar bilan o‘sishi 1959-1970 yillarga to‘g‘ri kelgan. Ushbu yillarda va undan keyingi yillarda tug‘ilganlar hamda mavjud mehnatga layoqatli bo‘lgan aholi

¹Chislennost naseleniya Uzbekistana. Goskomstat Uzbekistana. –Tashkent, 2007. –S.189.

tarkibiga mustaqillik arafasida tug‘ilgan yoshlarni kelib qo‘silib borishi yildan yilga mehnat yoshidagi aholining keskin ko‘payishiga olib kelgan.

3. 2004 yildan boshlab respublika aholisi sonida qariyalar ulushining qisqarishi yuz bergen. Aholi sonida tug‘ilish darajasining kamayishi quyidan keksayish jarayonining boshlanganidan dalolat beradi.

Bunga ikkinchi jahon urushidan keyingi “demografik to‘ldirish” davrida tug‘ilgan aholining qariyalar guruhi qatoriga qo‘silishi, yangi iqtisodiy sharoitga o‘tish davrida tug‘ilish darajasining qisqarishi sabab bo‘lgan.¹

Mustaqillik yillarida ayollarning tug‘ish yoshida ko‘tarilish jarayoni boshlandi. Tadqiqot doirasini 1991 yilida tug‘ish darajasining eng yuqori ko‘rsatkichi 15-19 yoshdagi ayollarda kuzatilgan. Mustaqillik yillarida ayollarni himoya qilish siyosati, qizlarni onalikka tayyorlash, aholini ma’lumotlilik darajasining oshishi, ish bilan bandlik darajasining ko‘tarilishi oqibatida ularni tug‘ish darajasi keyingi yillarda pasayib bordi. 1995 yildan boshlab yuqori daraja 20-24 yoshga tegishli bo‘ldi.

Ona va bola salomatligi uchun zararli oqibatlar keltirib chiqaradigan holatlar qizlarni balog‘atga yetmasdan turmushga chiqishi yoki juda kech turmushga chiqib homilador bo‘lishi va farzand ko‘rishi hisoblanadi. Shunga ko‘ra aholi orasida olib borilgan targ‘ibot-tashviqot ishlari, tibbiyot taraqqiyoti natijalarini hayotga tadbiq etish oqibatida 2003 yildan 15-19 yoshdagi ayollarning ham farzand ko‘rish darajasida pasayish holatlari yuzaga kelgan.

Shu o‘rinda onalik va bolalikni muhofaza qilish, ona sog‘lig‘ini mustahkamlash, sog‘lom farzand tug‘ilishi, “Sog‘lom ona – sog‘lom bola” maqsadli vazifalarini amalga oshirish

¹Abduraxmonov X. O‘zbekistonda qariyalarni ijtimoiy himoya qilishning demografik asoslari. Iqt. fan. nom. diss. ... –Toshkent, 2007. –B.3.

uchun joylarda viloyat hokimlari¹ farmoyishlari asosida tashkil etilgan chora-tadbirlar ham o'zining natijasini berdi.

MDH davlatlarida farzand ko'rish yoshidagi ayollarni yosh bo'yicha sakkiz guruhga bo'lib, to'qqizta davlat misolida o'rganib chiqilganda, turli xil tafovutlar mavjudligi ko'zga tashlanadi. Albatta, bu jarayonlarga qadimdan saqlanib kelayotgan an'ana, diniy e'tiqod, hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, davlatning demografik siyosati, ayollarning reproduktiv mayli kabi holatlar o'z ta'sirini ko'rsatgan. 15-19 yoshgacha bo'lgan ayollar bo'yicha tug'ishning yosh koeffitsienti miqdori Armaniston, Moldaviya, Ukraina davlatlarida yuqori darajada kuzatiladi (3-ilova).² Ushbu ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston Respublikasi MDH davlatlari orasida oxirgi o'rinda bo'lsa, 20-24 yoshlilar va 25-29 yosh guruhlari bo'yicha boshqa davlatlarga nisbatan eng yuqori darajaga ega bo'lgan. O'zbekiston Respublikasida ushbu holatni 30-34, 45-49 yosh bo'yicha tahlil qilinganda, Qirg'iziston Respublikasidan keyin, 35-44 yosh bo'yicha Qirg'iziston va Qozog'iston Respublikasidan keyingi o'rinni egallagan.³

Demografik tarkib aholining nafaqat yosh, balki jinsiy tarkibi bo'yicha taqsimlanishida ham namoyon bo'ladi. "Yer yuzida ayollarga nisbatan erkaklar ko'pchilikni tashkil etadi."⁴ Mustaqil O'zbekiston aholisining jinsiy tarkibi uning demografik rivojlanishi uchun qulay imkoniyat yaratgan, ya'ni erkaklar bilan ayollar soni o'rtasidagi farq ancha kamayib bordi. 1991-2006 yillar orasida erkaklar soni ayollarga nisbatan 209,2 ming kishiga ko'paydi, ya'ni 1991 yilda respublika aholisining 49,4 foizini erkaklar, 50,6 foizini ayollar tashkil etgan bo'lsa,

¹ Andijon viloyati xokimining farmoyishi //Prezident devoni Andijon viloyati arkivi. D. 4141. R. 29. y. -B.65.

² Seminar po osnovnim statisticheskim infikatorom demografi i reproduktivnogo zdorovya. Gosudarstvenny komitet Respublik Uzbekistan po statistike. -Tashkent, 2009. -C.11.

³ Denesenko M.B., Kalmikova N.M. Demografiya. Uchebnoye posobye. -M.: Infra. 2007. -S.164.

⁴ Borisov V. Demografiya, Uchebnik dlya vuzov. -M.: NOTA BENE, 1999. -S.82.

2006 yildan boshlab erkaklar bilan ayollar ulushi tenglashdi (1-diagramma).¹

Albatta, bunday jarayonlarni yuzaga kelishiga aholi o‘rtasida o‘rtacha umr ko‘rish darajasidagi o‘zgarishlar, bir yoshgacha go‘daklarda, ayniqsa, o‘g‘il bolalarda o‘lim holatining kamayishi, jamiyatdagi sog‘lom turmush tarzi sabab bo‘lgan.

O‘zbekistonning ijtimoiy himoya funksiyasi bozor iqtisodiyotiga asoslangan besh tamoyilning asosini tashkil etib, bu borada bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan kuchli ijtimoiy siyosat oila, ayol, farzand salomatligiga yanada e’tiborni kuchaytirdi, bu mustaqillik davrida aholining jinsiy mutanosibligidagi ijobiy o‘zgarishlar bilan izohlanadi.

Demografik vaziyatni shakllanishida aholining jinsiy tarkibi muhim omildir. Aholining jinsiy tarkibining yosh bo‘yicha tahlilida ham turli tafovutlar ko‘zga tashlanadi va yillar davomida o‘zgarib boradi.

Respublikada aholisining o‘ttiz to‘rt yoshgacha bo‘lgan guruhlarida (25-29 yoshdan tashqari) o‘g‘il bolalar (yigitlar) salmog‘i qiz bolalarga (qizlar) nisbatan biroz yuqoriligi bilan boshqa guruhlardan farqlangan. Masalan, 2004 yilda o‘g‘il bolalarни qiz bolalarga nisbatan ko‘proq tug‘ilishi oqibatida 8-15 yoshli aholi guruhida o‘g‘il bolalar 51,0 foizni tashkil etgan.

Bularning barchasi respublikaning kelajakdagi demografik jarayonlarini poydevori hisoblanadi. Ushbu demografik vaziyatda bolalarga nisbatan ijtimoiy himoya vositalarini yanada rivojlantirish, ularning aqlan va jismonan barkamol voyaga yetishlari uchun maorif va sog‘liqni saqlash tizimlarini yanada takomillashtirish muhim masaladir.

30-34 yosh tarkibidan boshlab erkaklar salmog‘i ayollarga nisbatan kamaya boshlagan. Respublika aholisining 30-34 yosh guruhlarida yigitlar 49,98 foizni tashkil etgan. Ushbu darajadan

¹Chislennost naseleniya Uzbekistana. Goskomstat Uzbekistana. –Tashkent, 2007. –S.68.

keyingi yosh guruqlarida kamayib borib, yetmish va undan yuqori yosh guruqlarida erkaklar ulushi 39,8 foizga tenglashdi.¹

O‘zbekistonni ma’muriy-hududiy bo‘linishi misolida tahlil qilinganda erkaklar va ayollar sonining tengligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon, Jizzax, Samarqand, Toshkent va Farg‘ona viloyatlarida kuzatiladi. Buxoro, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahrida ayollar, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Surxondaryo, Sirdaryo viloyatlarida erkaklarning aholi sonida biroz ustunligi namoyon bo‘ladi. Jumladan, eng katta farq Navoiy, Surxondaryo viloyatlarida (0,8 %, 0,7 %) yuz bergen. Toshkent shahrida esa ayollar sonining ustunligi (1,7 %) boshqa hududlardan yuqoriligi bilan farqlanadi.²

Tayanch so‘zlar: nikoh, tug‘ilish, tabiiy ko‘payish, mehnat yoshidagi aholi, ayollarning tug‘ish yoshida ko‘tarilish, ona va bola salomatligi, sog‘lom farzand tug‘ilishi, yosh va jins tarkibi, demografik vaziyat.

Savol va topshiriqlar:

1. Respublikada aholining necha foizini ikki yoshgacha bo‘lganlar tashkil etgan?
2. Ma’lumotlarga ko‘ra Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm, Sirdaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi ikki yoshgacha bo‘lganlar salmog‘i bo‘yicha yetakchi hisoblangan va ikki yoshgacha bo‘lganlar salmog‘i bo‘yicha yuqori darajaga ega bo‘lgan. Eng past ko‘rsatkich qaysi shaharga tegishli edi?
3. Tug‘ilish darajasining yuqori yoki pastligi 3-15 yosh yosh guruqlarining miqdoriy o‘zgarishlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatib kelgan. Masalan, respublika aholisining 3-15 yosh tarkibini salmog‘i Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida katta bo‘lsa, 16-24 yoshgacha bo‘lgan guruqlarning yuqori salmog‘i qaysi viloyatga to‘g‘ri kelgan?

¹Sotsialnoye razvitiye i uroven jizni naseleniya v Uzbekistane. –Tashkent, 2006. –S.28.

²Chislennost naseleniya Uzbekistana. Goskomstat Respublikи Uzbekistan. –Tashkent, 2007. –S.70.

4. 25-34 yosh guruhlari bo'yicha respublikamizda qaysi viloyat yetakchilik qilgan?
5. Toshkent shahri aholisi tarkibida 30-70 va undan yuqori yosh guruhlarining miqdori ko'pligi bilan izohlanadimi yoki aksimi?
6. Tug'ilish darajasi past bo'lgan hududlarda (masalan, Toshkent shahri) qariyalar soni ko'p bo'lsa, tug'ilish yuqori bo'lgan hududlardagi (misol uchun, Janubiy mintaqa) aholi tarkibida kimlarning salmog'ining yuqoriligi kuzatiladi?
7. 1999 yildan boshlab bolalar sonini kamayishi kuzatila boshlagan. Bu holat nima bilan izohlanadi?
8. 16-59 yoshlilar 1991-2006 yillarda necha foizga ortgan?
9. 16-59 yoshlilar soni 1991-2006 yillarda ortgan. Ushbu holat nima bilan izohlanadi?
10. Qariyalar soni 1992 yilda 1991 yilga nisbatan 34,3 ming kishiga ko'paygan bo'lsa, 2006 yilda 2005 yilga nisbatan 20,3 ming kishiga ortgan. Natijada qariyalarni aholi sonidagi ulushini kamayishi nechanchi yildan kuzatila boshlandi?
11. 1999 yildan respublikada tug'ilish ko'rsatkichlarining sezilarli kamayishi, mehnat yoshida bo'limgan aholi, ya'ni bolalar sonining ... borishi kuzatildi?
12. Aholining eng yuqori sur'atlar bilan o'sishi qaysi yillarga to'g'ri kelgan?
13. O'zbekistonda mehnatga layoqatli yoshdagilarni ko'payib borashini sabablari nimada?
14. 2004 yildan boshlab respublika aholisi sonida qariyalar ulushining ... yuz bergen?
15. Aholi sonida tug'ilish darajasining kamayishi qanday demografik jarayonning boshlanganidan dalolat beradi?
16. Mustaqillik yillarida ayollarning tug'ish yoshida ko'tarilish jarayoni boshlandi. Tadqiqot doirasini 1991 yilida tug'ish darajasining eng yuqori ko'rsatkichi necha yoshdagi ayollarda kuzatilgan?

18. Mustaqillik yillarida qanday jarayonlar ayollarda tug‘ish darajasini keyingi yillarda pasayib borishiga sabab bo‘ldi?
19. MDH davlatlarida farzand ko‘rish yoshidagi ayollarni yosh bo‘yicha to‘qqizta davlat misolida o‘rganib chiqilganda, turli xil tafovutlar mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Buning sababi nimada?
20. 15-19 yoshgacha bo‘lgan ayollar bo‘yicha tug‘ishning yosh koeffitsienti miqdori qaysi davlatlarda yuqori darajada kuzatiladi?
21. O‘zbekiston Respublikasi MDH davlatlari orasida qaysi yosh guruhlari bo‘yicha boshqa davlatlarga nisbatan eng yuqori darajaga ega bo‘lgan?
22. O‘zbekistonda nechanchi yildan boshlab erkaklar bilan ayollar ulushi tenglashdi?
23. Respublikamizda aholisining o‘ttiz to‘rt yoshgacha bo‘lgan guruhlarida (25-29 yoshdan tashqari) o‘g‘il bolalar (yigitlar) salmog‘i qiz bolalarga (qizlar) nisbatan biroz yuqoriligi bilan boshqa guruhlardan farqlangan. Masalan, 2004 yilda o‘g‘il bolalarni qiz bolalarga nisbatan ko‘proq tug‘ilishi oqibatida 8-15 yoshli aholi guruhida o‘g‘il bolalar necha foizni tashkil etgan?
24. O‘zbekistonni ma’muriy-hududiy bo‘linishi misolida tahlil qilinganda erkaklar va ayollar sonining tengligi qaysi hududlarda kuzatilgan?. 25. Buxoro, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahrida ... (erkak, ayol), Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Surxondaryo, Sirdaryo viloyatlarida ... (erkak, ayol)larning aholi sonida biroz ustunligi namoyon bo‘ladi.

1.5. Aholining mehnat salohiyati. Oila va nikoh

O‘zbekiston Respublikasi ulkan mehnat salohiyatiga egadir. Tadqiqot natijasiga ko‘ra, 1991 yilda mehnatga layoqatli aholining soni 10122,5 ming nafardan 2006 yilda 15241,3 ming nafarga yetdi, ya’ni 5118,8 ming kishiga ko‘paydi. Natijada, 1991 yilda umumiy aholi tarkibida mehnatga layoqatlilar ulushi 49,1 foizdan iborat bo‘lgan bo‘lsa, 2006 yilda esa respublika aholisining 57,9 foizini tashkil etdi (2-diagramma).¹

Mehnatga layoqatli aholi soni mustaqillikning dastlabki sakkiz yilidan (1991-1998 yy.) keyingi sakkiz yilida (1999-2006 yy.) 1012,4 ming kishiga ko‘paydi. Demak, O‘zbekistonning mehnat salohiyati yildan yilga ortib bormoqda. Tadqiqot davrida har yili mehnatga layoqatli yoshga o‘rtacha 340,8 ming kishi qo‘shilgan. Respublikamiz hududlarida mehnat resurslarining yuqori sur’atda o‘sishi Farg‘ona, Samarqand, Toshkent, Andijon viloyatlarida yuz bergan.

Mehnatga layoqatlilarni aholi soniga nisbati bo‘yicha o‘rganilayotgan yillarda shahar aholisi darajasi respublika darajasidan doimo yuqori bo‘lib kelgan, ya’ni 1991 yilda mehnatga layoqatli aholi 53,7 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2004 yilga kelib 59,5 foizni qamrab olgan. Bu holatni qishloq joylari misolida o‘rganilsa, 1991 yildan 2004 yilgacha bo‘lgan davrda respublika darajasidan past ko‘rsatkich namoyon bo‘ladi (46,0 %-54,2 %). Mazkur yillarda shahar va qishloq aholisi tarkibida mehnatga layoqatlilar soni ko‘payib borgan. Mustaqillik yillarida mehnatga layoqatlilar soni shahar aholisining ellik foizidan ortig‘ini tashkil etib kelgan bo‘lsa, qishloqlarda bu jarayon 2001 yilda yuzaga keldi.²

¹Demograficheskiy yejegodnik Uzbekistana. –Tashkent, 2004. –S.32; Sotsialnoye razvitiye i uroven jizni naseleniya v Uzbekistane. Statisticheskiy sbornik. –Tashkent, 2006. –S.95.

²Demograficheskiy yejegodnik Uzbekistana. –Tashkent, 2004. –S.14.

O'zbekistonning demografik vaziyatida aholini iqtisodiy nofaol qismi 1998 yilgacha ishlovchilar soniga qaraganda ko'pchilikni tashkil etgan. Bu jarayon qishloq joylarida ham o'z aksini topgan. 1998 yildan 2006 yilga qadar bu qatlam 7,3 foizga kamaydi va 2006 yilda 42,0 foizni tashkil etdi. Bu hali hamon aholi orasida ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlarning yuqoriligidan dalolat beradi. Aholi sonida mehnatga layoqatli aholidan kichik yoshdagilar, ya'ni o'n olti yoshgacha bo'lган bolalar, o'smirlar, o'quvchi-yoshlar 1991 yilda aholining 43,1 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2006 yilga kelib 35,0 foizga teng bo'ldi. Mehnatga layoqatli aholidan kichik yoshdagilar 1991 yildan 1998 yilgacha bo'lган davrda yiliga o'rtacha 156,3 ming kishiga ko'payib borgan. 1999-2006 yillar oralig'ida esa o'rtacha 80,5 ming kishiga kamaygan. Bu daraja kelajakda aholining mehnatga layoqatli qismi miqdoriga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Aholi tarkibida qariyalar soni 1991-2006 yillar orasida 252,9 ming kishiga ko'payib borgan, lekin respublika aholisi sonining o'sishiga nisbatan ularni ulushi 1991 yilda 7,8 foizdan 2006 yilda 7,0 foizga pastlagan. Respublika aholisi sonida katta salohiyatga ega bo'lган mehnatga layoqatli aholining qariyalar soniga kelib ko'shilishi hisobiga qariyalar soni keyingi yillarda ortib boradi. Aholining iqtisodiy nofaol qismida qariyalar muhim xususiyatga ega. Ularning bosib o'tgan hayot yo'li, to'plagan tajribasi va boshqa ijobiliy xususiyatlari kelajak avlodning tarbiyasida muhim ahamiyatga ega.

Oila jamiyatga ijtimoiy-demografik ta'siri bilan insoniyat taraqqiyotida muhim o'rın tutadi. O'z navbatida jamiyatdagi ijtimoiy-demografik jarayonlar oilalarning rivojlanish xususiyatlariiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Soha mutaxassislarining fikriga ko'ra, respublikada katta avlod oilalaridan yosh avlod oilalariga o'tib borgan sari katta oilalar salmog'i kamayib,

o‘rtacha oilalar salmog‘i ortib bormoqda.¹ Norvegiyada esa mamlakat hisobidagi oilalarning deyarli yarmi bir kishidan iborat bo‘lgan.²

Barcha oilalar uch turga bo‘linadi: kam bolali, o‘rta bolali va ko‘p bolali. Bir yoki ikki farzandlari bor oilalar kam bolali oilalar deyilsa, uch va to‘rt farzandlari bor oilalar o‘rtacha bolali oilalar tarkibiga kiradi. Besh va undan ko‘p farzandli oilalar esa ko‘p bolali oilalar hisoblanadi.³

Soha mutaxassislarining fikriga ko‘ra, O‘zbekistonda ko‘p bolalikdan o‘rtacha bolalikka o‘tish davri boshlangan, respublikada tug‘ilish darajasi kelajakda birmuncha kamayadi, deyish mumkin... Tug‘ilishni kamayishi, asosan oilada 5-6 ta va undan keyingi bolalarning tug‘ilish xollari keskin kamayishi hisobiga bo‘ladi.⁴

Nikoh – jamiyat taraqqiyoti davomida shakllangan sotsial, demografik jarayon bo‘lib, oila shakllanishi va aholi takror barpo bo‘lishining muhim omillaridan biridir.⁵

O‘zbekistonda aholining nikohda bo‘lish ko‘nikmasi va ajralish darajasining past ko‘rinishi ham uning o‘ziga xos xususiyati hamda aholining o‘sish manbai hisoblanadi. O‘rganilayotgan davrda respublikaning barcha hududlarida nikohlar sonini yildan yilga kamayish jarayoni yuz bergen.

Bunga asosan aholi tarkibida nikohga kirish yoshidagilarning salmog‘i, aholining jinsiy mutanosibligi, nikohga kirish yoshining o‘zgarishi, ya’ni keyingi yillarda ko‘tarilishi, shuningdek tug‘ilish ko‘rsatkichlari ta’sir etgan.

O‘rganilayotgan yillarni uch bosqichga bo‘lib, besh yillik hisobida kuzatilganda (1991-1995 yy. – I bosqich; 1995-2000 yy. – II bosqich; 2001-2005 yy. – III bosqich) masala yanada

¹Bo‘riyeva M.R. O‘zbekistonda oila demografiyasi. –Toshkent: Universitet, 1997. –B.141.

²Rukovodstvo po narodonaseleniyu. Kratkiy spravochnik. –Astana, 2003. –S.42.

³Medkov V.M. Demografiya. Uchebnik. –Moskva: INFRA, 2008. –S.260.

⁴Bo‘riyeva M.R. O‘zbekistonda oila demografiyasi. –Toshkent: Universitet, 1997. –B.155.

⁵Ahmedova N., Muxammedova N. O‘zbekiston shaharlari nikoh jarayoni ko‘rsatkichlarining tadrijiy o‘zgarishi (1959-1989yy.) //O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari: tarix va hozirgi zamon. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. II qism. –Toshkent, 2007. –B.6.

oydinlashadi. I bosqichda nikoh umumiy ko'rsatkichining pasayish sur'ati (o'rtacha 9,2 %) II bosqichga (o'rtacha 7,2 %) nisbatan biroz yuqori bo'lgani, III bosqichda esa (o'rtacha 6,5 %) birinchi bos-qichga nisbatan nikohning umumiy koeffitsientining pasayishida katta farq borligini kuzatish mumkin.

Albatta, bunday tafovutlar aholi orasida nikohda bo'lish yoshidagilar salohiyati natijasida yuzaga kelgan. Bu holat hududlarning avvalgi demografik tarixi bilan bog'liq. Chunki, mustaqillik yillaridagi nikoh yoshiga yetganlar soni aholining demografik tarixi mahsuli hisoblanadi. Bundan tashqari, nikohlar sonining o'zgarishi nikohga kirish yoshining yosharishi yoki kechikishi bilan ham bog'liq bo'ladi. Bularning barchasi mustaqillik yillaridagi respublika, yuzaga kelgan demografik vaziyatga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, 2006 yildan respublikaning barcha hududlaridagi tug'ilish darajasini avvalgi yillarga nisbatan ko'tarilish jarayoni yuz berdi.

Soha mutaxassislarning fikricha, tug'ilishning keksa avloddan yosh avlodga o'tib borishi bilan kamayish jarayoni yosh avlod ayollarining ijtimoiy ishlab chiqarishda bandlik darajasining oshib borishi bilan ham bog'liqdir. Yosh avlod oilalarida farzandlar tug'ilishining kamayishi keyingi paytlarda homiladorlikni oldini oluvchi vositalarning keng tarqalishi va bu vositalar haqida aholi tushunchalarining ortib borishi bilan ham bog'liqdir.¹ Respublikada qayd etilgan nikohlarning soni I bosqichda o'rtacha 215,7 ming, II bosqichda o'rtacha 178,6 ming, III bosqichda esa o'rtacha 167,4 mingga kamayib borgan.

Yangi ijtimoiy munosabatlар sharoitida respublikada va uning barcha hududlarida nikohlar soni va uning koeffitsientining pasayish jarayoni bormoqda. Masalan, 1991 yilda respublikada nikohlar soni 12,9 promilleni tashkil etgan

¹Bo'riyeva M. O'zbekistonda oila demografiyasi. –Toshkent: Universitet, 1997. –B.146.

bo'lsa, 2006 yilda 7,9 promillega teng bo'ldi, ya'ni besh promillega kamaydi.¹

1991 yildan 2006 yilgacha nikoh darajasi qishloqlarda shaharlarga nisbatan biroz yuqori bo'lgan, 1998-1999 yillarda shahar bilan qishloq darajasi tenglashgan. 2000-2004 yillarda esa nikoh darajasi shahar joylarida qishloqqa nisbatan yuqori bo'lgan. O'rganilayotgan dayrda shaharlarda nikoh darajasi o'rtacha 7,7 promillega, qishloqlarda esa o'rtacha 7,9 promillega kamayishi yuz bergen. Hududlar bo'yicha nikoh ko'rsatkichining yuqori darajasi Farg'ona viloyatiga tegishli bo'lib, 1997 yilda 20,8 promillega teng bo'lgan, eng past ko'rsatkich Sirdaryo viloyatiga (1997 yil 4,7 %, 2003 yil 4,0 %) to'g'ri kelgan.

Demografik vaziyatga ta'sir etuvchi jarayonlardan biri nikohning bekor bo'lishi, ajralishdir. Respublika miqyosida ajralishlar mustaqillik yillarida kamayib borgan. Masalan, 1991 yilda 1,6 promille bo'lgan bo'lsa, 2006 yilda 0,6 promillega tushgan. Tadqiq etilgan yillarda ajralishlar sonining eng baland ko'rinishi 1991 yilda yuz bergen. Bu daraja yillar davomida pasaygan (o'rtacha 22,0 ming). 2005 yilda esa oilalarda ajralishlar miqdori minimal darajasiga ega bo'lgan, natijada 1991-2005 yillar orasida bir promillega kamaydi. Albatta, bu yutuqlar zaminida jamiyatimizni barqarorligini ta'minlashga qaratilgan siyosat yotadi.²

Ajralishlar insonning ruhiy holatiga salbiy ta'sir etib, hayotini izdan chiqaradi. Jamiyatda yetim-yesirlar sonining ko'payishiga, barkamol avlod tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun yoshlarni oilaga tayyorlash, fuqarolar ichida oila muqaddasligi bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini yanada kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

¹Demograficheskiy yejegodnik Uzbekistana. Goskomstat Respublikı Uzbekistan –Tashkent, 2004. –S.2.
²o'sha joyda.

Zero, “Vatanimiz kelajagi, – degan edi O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov, – xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e’tibori avvalambor farzandlarimizni unib-o‘sib, ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib, hayotga kirib borishiga bog‘liqdir”.¹ Binobarin, mustaqillik yillarida onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish yo‘lidagi ijobjiy ishlar natijasida tug‘ish yoshidagi ayollar va go‘daklar hayoti bilan bog‘liq noxush holatlarning keskin darajada kamayishiga erishilmoqda. Ayniqsa, inson sog‘ligi, ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog‘lom avlodni shakllantirishga doir normativ hujjatlarni hayotga tadbiq etilishi mustaqil davlat siyosatining demokratik ko‘rinishini isbotidir.

Ta’kidlash lozimki, O‘zbekistonning demografik siyosati ona va bola sog‘ligini mustahkamlash maqsadida tug‘ilishni tartibga solishga qaratilgan. Bunda tug‘ilishni qisqartirishga hamda oilada bolalar sonini kamaytirishga hatto ishora ham yo‘q. So‘z faqat tug‘ilishni tartibga solish madaniyati haqida borishi mumkin.²

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti bu haqda quyidagi fikrlarni bildirgan: – Oilada qancha bola bo‘ladi – buni ota-onaning o‘zi hal qiladi. Har kim o‘zi aql bilan o‘ylab, salomatlikni, imkoniyatni hisobga olib xulosa chiqarsin. Faqat bitta sharti bor – tug‘ilgan bola sog‘lom o‘ssin, ulg‘ayib voyaga yetgach, jamiyatimizning barkamol a’zosi bo‘lsin, yangi quriladigan oiladan yanada sog‘lomroq avlod bunyodga kelsin.³

Darhaqiqat, sog‘lom avloddangina sog‘lom farzand dunyoga keladi. Ushbu o‘tkir haqiqatga asoslanib olib borilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar natijasiga ko‘ra ayollarning

¹Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma’naviyat, 2008. –B.1.

²Ubaydullaeva R., Ata-Mirzaev O., Umarova N. O‘zbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi. – Toshkent: Universitet, 2006. –B.64.

³Karimov I.A. Sog‘lom avlod tarbiyasi – barchamizning muqaddas insoniy burchimiz. Sog‘lom avlod davlat dasturni tashiqlashga bag‘ishlangan majlisda so‘zlangan mutq. 2000, 24 fevral //Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. –Toshkent: O‘zbekiston, 2000. 8-jild. –B.427.

qanchalik ko‘p va tez-tez farzand ko‘rishlari ularning organizmi zaiflashib turli xil kasalliklarga chalinishiga sabab bo‘ladi. Homiladorlikning asoratlar bilan kechishi aynan xastalangan ayollarda yuz beradi. Natijada homiladorlik va tug‘ruqda qon ketish, homilani yaxshi o‘smasligi, bola tashlash va chala tug‘ish, og‘ir tug‘ruqni boshdan kechirish, chaqaloqni o‘lik tug‘ilishi, 0,6 kunlik davrida chaqaloqni yashovchanlik darjasini susayib borib, nobud bo‘lishi yoki bir yoshgacha go‘daklar o‘limi, umrbod nogironlik va boshqa holatlar yuzaga keladi. Farzandlarini yo‘qotgan ayollarning ruhiy azoblanishi, kelajakka umidsizlik hissini kuchayishi uning jismoniy holatini yanada toliqtiradi. Temir mikroelementining kamayib ketishi ham ko‘p va tez-tez farzand ko‘rgan ayollarda kuzatiladi, natijada kamqonlik yuzaga keladi. Aholi orasida tibbiy madaniyatni oshirish ayollarimizni sog‘-salomat bo‘lishlari, homiladorlik, tug‘ruq jarayonlarini asoratsiz o‘tkazishlari va sog‘lom bolalarni dunyoga keltirishlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tayanch so‘zlar: mehnat salohiyati, mehnat resurslari, demografik vaziyati, aholini iqtisodiy nofaol qismi, katta avlod oilalari, kam bolali oila, o‘rta bolali oila, ko‘p bolali oila, nikoh, aholining jinsiy mutanosibligi.

Savol va topshiriqlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi ulkan mehnat salohiyatiga egadir. Tadqiqot natijasiga ko‘ra, 1991 yilda mehnatga layoqatli aholining soni 2006 yilda qancha kishiga ko‘paydi?
2. Mehnatga layoqatli aholi soni mustaqillikning dastlabki sakkiz yilidan (1991-1998 yy.) keyingi sakkiz yilida (1999-2006 yy.) qancha ming kishiga ko‘paydi?
3. O‘zbekistonning mehnat salohiyati yildan yilga ortib bormoqda. 1991-2006 yillarda har yili mehnatga layoqatli yoshga o‘rtacha qancha ming kishi qo‘shilgan?

4. Aholi sonida mehnatga layoqatli aholidan kichik yoshdagilar, ya'ni o'n olti yoshgacha bo'lgan bolalar, o'smirlar, o'quvchi-yoshlari 1991 yilda aholining 43,1 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2006 yilga kelib necha foizga teng bo'ldi?
5. Aholi tarkibida qariyalar soni 1991-2006 yillar orasida necha ming kishiga ko'payib borgan?
6. Jamiyatda oilaning o'rni qanday?
7. Nechtadan farzand bor oilalar kam bolali oilalar deyiladi?
8. Eng ko'p bolali oilalar deganda qancha farzand nazarda tutiladi?
9. Soha mutaxassislarining fikriga ko'ra, O'zbekistonda ko'p bolalikdan o'rtacha bolalikka o'tish davri boshlangan, respublikada tug'ilish darajasi kelajakda birmuncha kamayadi deyish mumkin, buni qanday izohlaysiz?
10. Nikohning oila shakllanishidagi ahamiyati qanday?
11. Aholi tarkibida nikohga kirish yoshidagilarning salmog'iga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ko'rsatib o'ting.
12. 1991 yilda respublikada nikohlar soni qancha promilleni tashkil etgan? 13. 2006 yilda nikohlar soni necha promillega teng bo'ldi?
14. 1991 yilda 2006 yilga nisbatan respublikada nikohlar soni qancha promilleni kamaydi?
15. 1991 yildan 2006 yilgacha nikoh darajasi qishloqlarda shaharlarga nisbatan biroz yuqori bo'lgan, 1998-1999 yillarda shahar bilan qishloq darajasi tenglashgan. 2000-2004 yillarda esa nikoh darajasi shahar joylarida qishloqqa nisbatan qanday bo'lgan?
16. 1991-2006 yillarda shaharlarda nikoh darajasi o'rtacha qancha promillega, qishloqlarda esa o'rtacha qancha promillega kamayishi yuz bergan? 17. Hududlar bo'yicha nikoh ko'rsatkichining yuqori darajasi Farg'ona viloyatiga tegishli bo'lib, 1997 yilda 20,8 promillega teng bo'lgan, eng past

ko'rsatkich qaysi viloyatiga (1997 yil 4,7 %, 2003 yil 4,0 %) to'g'ri kelgan?

18. 1991-2006 yillarda ajralishlar sonining eng baland ko'rinishi 1991 yilda yuz bergen. Bu daraja yillar davomida o'rtacha qanchaga pasaygan?

19. 2005 yilda esa oilalarda ajralishlar miqdori minimal darajasiga ega bo'lgan, natijada 1991-2005 yillar orasida qancha promillega kamaydi?

Xulosa qilib aytganda, 1991-2006 yillar davomida O'zbekiston Respublikasining demografik jarayonlarida o'zgarishlar yuz berdi. Boshqa davlatlardan farqli xususiyati ham ushbu jarayonlarda ko'proq namoyon bo'lgan, ya'ni aholi sonining o'sish sur'ati hamda tug'ilish va o'limning kamayishi, aholi mutlaq sonini kamayishi, aholi zichligi va joylashuvini o'zgarishi, yosh va jins tarkibidagi mutanosiblik, o'rtacha umr ko'rish darajasini ortishi, nikoh va ajralishni sekinlashuvi, migratsiyani faollashuvi bilan izohlanadi.

Aholi salmog'iga ko'ra Samarcand viloyati 1998 yildan boshlab yetakchilik qila boshladi, chunki ushbu hududda aholini tug'ilish va tabiiy ko'payishi nisbatan yuqori darajada edi.¹ Keyingi o'rirlarni Farg'ona, Andijon, Toshkent viloyatlari egallagan. O'rganilayotgan davrda respublikada demografik o'sish sur'atlarining sezilarli darajada pasayishi kuzatiladi.

O'zbekistonda aholining o'rtacha umr ko'rish darjasasi 1994 yilda 68,8 yoshga, 2006 yilda esa 72,5 yoshga teng bo'lgan. Qashqadaryo, Jizzax, Surxondaryo viloyatlarida aholining o'rtacha umr ko'rish darjasasi respublika darjasidan doimo baland bo'lgan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Sirdaryo viloyati va Toshkent shahrida esa eng past daraja kuzatiladi. Ayollarning yosh bo'yicha tug'ish darajasida ham o'zgarishlar yuz berdi. 1991 yilda 15-19 yoshdagi ayollarning tug'ish

¹ 2. paragrafga qarang.

darajasi yuqoriligi kuzatilsa, 1995 yildan boshlab yuqori daraja 20-24 yoshlilarga tegishli bo‘ldi.

1991-2006 yillar orasida respublikada erkaklar bilan ayollar soni o‘rtasidagi farq ancha kamayib bordi va 2006 yilga kelib tenglashdi. Mehnatga layoqatlilar soni mazkur yillar mobaynida 8,8 foizga ortgan. Mustaqillik yillarida mehnatga layoqatlilar soni shahar aholisining ellik foizdan ortig‘ini tashkil etib kelgan bo‘lsa, qishloqlarda bu jarayon 2001 yilda yuzaga keldi.¹ Mehnatga layoqatli aholidan kichik yoshdagilar 1991 yilda aholining 43,1 foiziga, 2006 yilga kelib 35,0 foiziga teng bo‘ldi. Respublika aholisi sonida qariyalarining ulushi 1991 yilda 7,8 foizdan 2006 yilda 7,0 foizga pastlagani aniqlandi.

Mustaqillik yillarida respublikamizda nikoh ko‘rsatkichining pasayish jarayoni yuz berdi. Ushbu holatga aholi tarkibida nikohga kirish yoshidagilarning salmog‘i, aholining jinsiy mutanosibligi, nikohga kirish yoshining o‘zgarishi, ya’ni keyingi yillarda ko‘tarilishi, shuningdek, tug‘ilish ko‘rsatkichlari ta’sir etgan. Natijada, 1991-2006 yillarda nikohga kirish besh promillega, ajralishlar esa bir promillega kamaygan.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan bozor iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratilgan besh tamoyil asosida yuritilayotgan odil siyosat natijasi aholini o‘rtacha umr ko‘rish darajasining ko‘tarilishi, o‘limning, ayniqsa go‘daklar o‘limning kamayishi, oilalarda ajralishlar koeffitsientining pasayishi va qator ijobiy ko‘rinishlarda namoyon bo‘lgan.

¹Chislennost naseleniya Uzbekistana. Goskomstat Respublikи Uzbekistan. –Tashkent, 2007. –S.70.

II. O'ZBEKISTON AHOLISINING TABIIY KO'PAYISHIDAGI HUDUDIY FARQLAR

2.1. Respublika aholisining tabiiy ko'payishi

Aholi sonini o'sishida tabiiy ko'payish muhim ahamiyatga ega bo'lib, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlariga mos ravishda malum darajada shakllanadi. Odatta, tabiiy ko'payish darajasining yuqori bo'lishi aholi sonini tez ko'payishiga olib keladi, bunday holat o'z-o'zidan tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlariga, aholining jinsiy, yosh, milliy va hududiy tarkibiga, ijtimoiy, iqtisodiy hamda geografik omillar va ekologik vaziyatga bog'liq.

O'zbekistonda mustaqillik yillarda ham aholining tabiiy ko'payishida o'zgarishlar yuz berdi. Bu mamlakat mustaqillik tarixining dastlabki 16 yillik demografik nisbatida yorqinroq namoyon bo'ladi. Masalan, 1991 yilda respublika hududlarida tabiiy ko'payish har ming aholiga 28,3 % (promille)¹ ni tashkil etgan bo'lsa, 2006 yilga kelib 15,8 promillega teng bo'ldi. Tug'ilish koeffitsienti esa 34,5 promilledan 21,1 promillegacha, ya'ni 1,3 martaga qisqardi.² Tug'ilish darajasining pasayishi viloyatlarning shahar aholisida ham, qishloq aholisida ham kuzatiladi.³

Albatta, bozor iktisodiyotiga o'tish sharoitida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar aholining yosh, jins va milliy tarkibi, tug'ilish koeffitsientida ham o'z ifodasini topgan. Kuzatuvlardan namoyon bo'ladiki, O'zbekiston oilalarida tug'ilgan farzandlar soni katta avloddan yosh avlodga o'tib borgan sari asta-sekin kamayib borgan.⁴ Mavjud ekologik

¹Izoh: muayyan miqdorning mingdan bir bo'lagi, 1/10 foizini anglatuvchi % belgisi.

²Estestvennoye dvijeniye naseleniya Respubliki Uzbekistan. Stat. sbor. Goskomstat Uzbekistana. –Tashkent, 2006. –S.95.

³Bo'riyeva M.R. O'zbekistonda oila demografiyasi. –Toshkent: Universitet, 1997. –B.132.

⁴o'sha joyda. –B.141.

muammolar ta'sirida bir yoshgacha bolalar o'limi, ayollarning bandlik darajasi ham tug'ilish ko'rsatkichiga ta'sir etib kelgan.

Tabiiy ko'payishning kamayish holatlari O'zbekiston mintaqalari bo'ylab o'rganilganda o'ziga xos tarzda yuzaga kelgan. Masalan, doimo respublika aholisining o'sishida yetakchi bo'lib kelgan Janubiy mintaqada eng baland daraja kuzatiladi. Sababi, ushbu regiondagi Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida tabiiy ko'payishni kamayishi respublikaning boshqa hududlaridan yuqoriligidir. Tabiiy ko'payishning sezilarli darajada kamayishi Jizzax va Namangan viloyatlarida ham namoyon bo'lgan. Tabiiy ko'payish ko'rsatkichi past bo'lgan Toshkent shahrida uning qisqarish holati ham ancha sekinlik bilan borgan. Demak, o'rganilayotgan davr oralig'ida tabiiy ko'payish yuqori bo'lgan hududlarda uning pasayishi ham yuqori va tabiiy ko'payish past ko'rsatkichi kuzatilgan hududlarda uning pasayishi ham sekinlik bilan yuz bergen.

Tadqiqot yillarida aholi tabiiy ko'payishidagi o'rtacha darajaning eng yuqori ko'rinishi Janubiy mintaqada namoyon bo'lgan.¹ Mirzacho'l mintaqasidagi aholini o'rtacha tabiiy ko'payish darajasining yuqoriligi bu yerda joylashgan Jizzax viloyatining o'rtacha tabiiy ko'payish ko'rsatkichi bilan bog'liq. Ushbu hududda joylashgan Sirdaryo viloyati esa respublikadagi hududlarga nisbatan o'rtacha darajaga ega bo'lgan.

Tabiiy ko'payishning o'rtacha darajasi bo'yicha Quyi Amudaryo mintaqasi uchinchi, Zarafshon to'rtinchi, Farg'ona beshinchi va Toshkent mintaqasi oltinchi o'rinda bo'lgan. Zarafshon mintaqasidagi holatga Samarqand viloyatining ijobiy ta'siri, Quyi Amudaryo mintaqasi holatiga Xorazm viloyatining tasiri katta edi. Buxoro, Navoiy, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida tabiiy ko'payishning o'rtacha darajasi

¹Estestvennoye dvijeniye naseleniya Respubliki Uzbekistan. Statisticheskiy sbornik. Goskomstat Uzbekistana. – Tashkent, 2006. –S.95.

miqdori respublika viloyatlari ichida eng past ko'rsatkichga ega bo'lgan.

1991-1998 yillarda respublika bo'yicha aholining tabiiy ko'payishini o'rtacha darajasi 23,0 promillega, 1999-2006 yillarda 15,6 promillega teng bo'lgan (o'rtadagi farq 7,4 %). Bu holat respublikamiz hududlarida o'ziga xos tarzda yuz bergan. Masalan, Janubiy regionda o'rtadagi farq 10,4 promille, Farg'ona vodiysida 9,1 promille, Mirzacho'lda 7,6 promille, Zarafshon vohasida 7,8 promille, Quyi Amudaryo mintaqasida 5,9 promille, Toshkent regionida 4,1 promillegacha farq qilgan.¹

Demak, mintaqalar bo'yicha tabiiy ko'payishning o'rtacha darajasi mustaqillikning avvalgi sakkiz yiliga nisbatan keyingi yillarda kamayib borgan. Regionlardagi bu holat ushbu hududlarda joylashgan mamuriy-hududiy tuzilmalardagi aholining tabiiy ko'payish holatiga bog'liq. Shuni aytib o'tish kerakki, mustaqillikning avvalgi sakkiz yilidan keyingi yillarida tabiiy ko'payishning o'rtacha darajasi bo'yicha Quyi Amudaryo mintaqasidagi holat ijobiy tomonga o'zgargan bo'lsa, Farg'ona vodiysida esa o'rtacha darajaning kamayishi kuzatilgan. Doimo past ko'rsatkich bilan tilga olingan Buxoro viloyatida mustaqillikning keyingi yillarida ijobiy siljish yuz bergan. Bu Buxoro viloyatidagi o'limning past ko'rsatkichi bilan ifodalanadi. Sirdaryo viloyatida ham shunday holat takrorlangan.

Tadqiqotlarga asoslanib, respublikaning yuqori ma'muriy-hududiy tuzilmalari aholisini 1991-2006 yillar davomidagi tabiiy ko'payishining o'rtacha darajasi bo'yicha quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- tabiiy ko'payishning o'rtacha darajasi yuqori bo'lgan hududlar: Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Samarqand viloyatlar (21,8 %-24,8 %);

¹Estestvennoye dvijeniye naseleniya Respubliki Uzbekistan. Statisticheskiy sbornik. Goskomstat Uzbekistana. - Tashkent, 2006. -S.95.

- o‘rtacha hududlar: Xorazm, Namangan, Sirdaryo, Farg‘ona, Andijon, Navoiy, Buxoro viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi (18,5 %o-21,1 %o);
- tabiiy ko‘payishning o‘rtacha darajasi past hududlar: Toshkent viloyati va Toshkent shahri (7,9 %o-15,3 %o).

Aholining demografik holatidagi hududiy farqlar respublika mintaqalarida o‘ziga xos tus olgan. Mamlakat markazini o‘z ichiga olgan Toshkent regioni aholi salohiyati bo‘yicha Farg‘ona, Zarafshondan keyin uchinchi darajada e’tirof etiladi hamda ushbu mintaqada respublika aholisining 17,5 foizi yashaydi.

Tabiiy ko‘payishning o‘rtacha darajasi sarhisobida Toshkent regioni respublikada eng past ko‘rinishga ega edi. Farg‘ona vodiysini Toshkent regioniga solishtirilganda 8,2 promillega ortiqligi bilan farqlangan. Albatta, bu holatga tug‘ilish va o‘lim, urbanizatsiya darajasi va aholining yosh tarkibi, ayniqsa, bandlik, ma’lumotlilik darajalari katta ta’sir ko‘rsatadi. Tug‘ilishning o‘rtacha darajasi bo‘yicha ham ushbu holat takrorlanadi. O‘limning nisbatan eng yuqori darajasi¹ Toshkent regioniga to‘g‘ri kelgan. Tug‘ilish darajasi esa nisbatan past ko‘rsatkichga ega bo‘lgan. O‘limning o‘rtacha darajasi bo‘yicha Toshkent regioni Farg‘ona vodiysidan 2,1 promillega yuqori bo‘lgan.

Bundan tashqari, ushbu mintaqada respublika bo‘yicha shahar aholisi (67,5 %) eng ko‘p joylashgan. Toshkent shahrining o‘zida respublika shahar aholisining 22,5 foizi yashagan. Toshkent viloyatida hudud aholisining 39,3 foizi shahar aholisidan iborat bo‘lib, mamlakat o‘rtacha ko‘rsatkichidan biroz yuqoriroq bo‘lgan.²

Ushbu regionning boshqa mintaqalardan farqli tomoni mahalliy millat vakillaridan tashqari boshqa millat vakillarining

¹Estestvennoye dvijeniye naseleniya Respubliki Uzbekistan. Statisticheskiy sbornik. Goskomstat Uzbekistana. – Tashkent, 2006. –S.95.

²Chislennost naseleniya Uzbekistana. Goskomstat Uzbekistana. Stat. sbor. –Tashkent, 2007. –S.58.

salmog‘i nisbatan ustunligi hisoblanadi. Ularning farzand ko‘rishga moyilligini nisbatan sustligi va tashqi migratsiyaning ta’siri sababli hamda katta yoshdagilarni aholi sonida ko‘pchilikni tashkil etishi ham mintaqaning tug‘ilish darajasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Masalan, ruslarning 46,7 foizi, ukrainlarning 44,1 foizi, beloruslarning 36,1 foizi Toshkent shahrida istiqomat qilgan, vaholanki ruslar respublika bo‘yicha shahar aholisining 22,3 foizini tashkil etgan.

Tayanch so‘zlar: tabiiy ko‘payish, tug‘ilish, o‘lim ko‘rsatkichlari, aholining jinsiy tarkibi, yosh tarkib, milliy tarkib, hududiy tarkib, ijtimoiy, iqtisodiy va geografik omillar, ekologik vaziyat, ayollarning bandlik darajasi, promille, demografik holati, urbanizatsiya.

Savol va topshiriqlar:

1. Tabiiy ko‘payish darajasining yuqori bo‘lishi aholi sonini tez ko‘payishiga olib keladi, bunday holat qanday demografik jarayonlarga bog‘liq?
2. 1991 yilda respublika hududlarida tabiiy ko‘payish har ming aholiga qancha promilleni tashkil etgan?
3. Respublikada tug‘ilish koeffitsienti 1991 yilda necha promillega yetdi?
4. Respublikada tug‘ilish koeffitsienti 1991 yildan 2006 yilda necha martaga qisqardi?
5. Bozor iktisodiyotiga o‘tish sharoitida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar qanday demografik jarayonlarda o‘z ifodasini topgan?
6. Kuzatuvlardan namoyon bo‘ladiki, O‘zbekiston oilalarida tug‘ilgan farzandlar soni katta avloddan yosh avlodga o‘tib borgan sari asta-sekin kamayib borgan Tabiiy ko‘payishning

kamayish holatlari O'zbekiston mintaqalari bo'ylab o'rganilganda qanday jarayonlar kuzatiladi?

7. Qaysi viloyatlarda tabiiy ko'payishni kamayishi respublikaning boshqa hududlaridan yuqori bo'lgan?
8. 1991-2006 yillarda aholi tabiiy ko'payishidagi o'rtacha darajaning eng yuqori ko'rinishi qaysi mintaqada namoyon bo'lgan?
9. Mirzacho'l mintaqasidagi aholini o'rtacha tabiiy ko'payish darajasining yuqoriligi bu yerda joylashgan qaysi viloyatning o'rtacha tabiiy ko'payish ko'rsatkichi bilan bog'liq?
10. Tabiiy ko'payishning o'rtacha darajasi bo'yicha qaysi mintaqqa uchinchi o'rinda bo'lgan?
11. Tabiiy ko'payishning o'rtacha darajasi yuqori bo'lgan hududlarni sanab o'ting.
12. Tabiiy ko'payish o'rtacha hududlarga misol keltiring.
13. Tabiiy ko'payishning o'rtacha darajasi past hududlarni aniqlang.
14. Mamlakat markazini o'z ichiga olgan Toshkent regioni aholi salohiyati bo'yicha qaysi viloyatlardan keyingi o'rinni egallaydi?
15. Toshkent regionida respublika aholisining necha foizi yashaydi?
16. Toshkent viloyatida hudud aholisining necha foizi shahar aholisidan iborat?
17. Toshkent regionining boshqa mintaqalardan farqli tomonlarini ko'rsatib o'ting.
18. Ruslarning necha foizi Toshkent shaxrida yashagan?
19. Ukrainianlar va beloruslarning necha foizi Toshkent shahrida istiqomat qilgan?

2.2. Respublika hududlarining demografik xususiyatlari

Toshkent shahrida tug‘ilishning o‘rtacha darajasi 16,2 promillega, Toshkent viloyatida esa bu holat 21,5 promillega teng bo‘lgan. Tabiiy ko‘payishning o‘rtacha darajasi Toshkent shahrida 7,9 promillega, Toshkent viloyatida esa 15,3 promillega teng bo‘lib, respublika bo‘yicha tug‘ilish va tabiiy ko‘payishning eng past ko‘rsatkichi e’tirof etiladi. Har ikkala hududda ham o‘limning 1991-2006 yillar misolida o‘rtacha darajasi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich kuzatiladi. Bunga aholi tarkibida yoshlар salmog‘ini kamligi, katta yoshdagilarni nisbatan yuqoriligi, buning natijasida tug‘ilishning respublikani barcha hududlaridan eng past ko‘rsatkichi, migratsiya, urbanizatsiya darajasi, milliy tarkib hamda sanoat, transport, ekologik holatlar o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.

Shu tariqa Toshkent shahrida 1991-2006 yillar davomida o‘sish sur’atining pasayib borishi bilan Toshkent mintaqasini o‘sish sur’atiga ham ta’sir etgan. Ushbu yillarda region aholining o‘sishi ko‘proq Toshkent viloyati hisobiga ta’milangan, lekin 1995 yilga kelib aholining o‘sish sur’atini pasayishida Toshkent viloyati Toshkent shahri aholisini qoplay olmagan va 99,5 foizga tushib ketgan.¹ Albatta, shahar turmush tarzining keng yoyilishi, uy-joy va boshqa iqtisodiy muammolar ham² tug‘ilish darajasining kamayishiga olib kelgan.

Farg‘ona vodiysi respublika bo‘yicha aholisi eng ko‘p va zinch joylashgan hudud hisoblanib (aholi 7358,4 ming), 1991-2006 yillar sarhisobiga ko‘ra ushbu mintaqa tug‘ilishning o‘rtacha darajasi (24,8 %) bo‘yicha respublika mintaqalari ichida to‘rtinchi o‘rinni, tabiiy ko‘payishning o‘rtacha darajasi (19,8 %)³ bo‘yicha beshinchi o‘rinni egallagan. O‘limning

¹Chislennost naseleniya Uzbekistana. Statisticheskiy sbornik. –Tashkent, 2007. –S.189.

²Bo‘riyeva M. O‘zbekistonda oila demografiyasi. –Toshkent: Universitet, 1997. –B.146.

³Estestvennoye dvijeniye naseleniya Respublikи Uzbekistan. Statisticheskiy sbornik. Goskomstat

o‘rtacha darajasining yuqoriligi bo‘yicha esa respublikada Toshkent, Quyi Amudaryo mintaqalaridan keyingi o‘rinda edi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, regionda O‘zbekiston aholisini 27,9 foizi yashagan, Andijon viloyatida 9,0 foizi, Namangan viloyatida 8,0 foizi, Farg‘ona viloyati esa 10,9 foizi istiqomat qilgan. Respublikada tug‘ilish va tabiiy ko‘payishning o‘rtacha darajasi kuzatilganda, Andijon va Farg‘ona viloyatlari to‘qqizinchi, o‘limning o‘rtacha darajasini yuqoriligi bo‘yicha beshinchi o‘rinni egallagan. Namangan viloyati esa birinchi holatda oltinchi, ikkinchi holatda yettinchi pog‘onada namoyon bo‘lgan.

Ushbu mintaqada shahar aholisi 2291,7 ming nafar bo‘lib, urbanizatsiya darajasi 31,1 foizni tashkil etgan (Andijon viloyatida 29,4%, Namangan viloyatida 37,2 %, Farg‘ona viloyatida 28,1 %). Vodiya bir kvadrat kilometrga 397,7 kishi to‘g‘ri kelgan.¹

Zarafshon vohasi tarkibida Samarcand, Buxoro, Navoiy viloyatlari mavjud. Ushbu regionda 2006 yilda 5246,1 ming kishi ro‘yxatga olingan (respublika aholisini 19,9 % i). 1991-2006 yillar tug‘ilish va tabiiy ko‘payishning o‘rtacha darajasi bo‘yicha Toshkent regionidan oldinda bo‘lgan. Ushbu mintaqada aholining tabiiy ko‘payishi Farg‘ona vodiysiga nisbatan biroz balandroq, o‘limning o‘rtacha darajasi esa Janubiy va Mirzacho‘l mintaqasidan nisbatan pastroq ko‘rinishda namoyon bo‘lgan. Zarafshon vohasining o‘rtacha o‘lim darajasi Farg‘ona mintaqasiga nisbatan 0,2 promillega kamligi bilan farqlanadi.

Aholisi eng ko‘p joylashgan (1998 yildan buyon) Samarcand viloyati ushbu mintaqaga tarkibidadir. O‘rganilayotgan davrda aholini tug‘ilish va tabiiy ko‘payishning o‘rtacha darajasi bo‘yicha to‘rtinchi o‘rinda kuzatilib, aholisi tez o‘sib borayotgan

Uzbekistana. –Tashkent, 2006. –S.95.

¹ Chislennost naseleniya Uzbekistana. Goskomstat Uzbekistana. Stat. sbor. –Tashkent, 2007. –S.58.

hudud hisoblangan,¹ albatta, bunga sabab hududning o‘rtacha o‘lim ko‘rsatkichiga egaligidir. Aholi zichligi bo‘yicha Andijon, Farg‘ona, Namangan va Xorazm viloyatlaridan keyingi o‘rinni egallagan (173,6 kishi). Aholining qishloq joylarda tez ko‘payib borayotgani ham alohida ahamiyatga ega.

Samarqand viloyatida 2907,5 ming kishi, Buxoro viloyatida 1525,9 ming kishi, Navoiy viloyatida 812,7 ming kishi (Samarqand viloyatida respublika aholisini 11,0 % i, Buxoro viloyatida 5,8 % i, Navoiy viloyatida 3,1 % i) yashagan. Mintaqaning shahar aholisi 1512,9 ming kishi, urbanizatsiya darajasi 28,8 foiz bo‘lib, respublikada o‘rtacha ko‘rsatkichga ega hudud hisoblangan. Shahar aholisi Samarqand viloyatida 25,5 foizni, Buxoro viloyatida 29,5 foizni, Navoiy viloyatida 39,5 foizni tashkil etgan.

Mustaqillik yillarda mamlakatimiz demografik vaziyatidagi o‘zgarishlar Buxoro viloyatiga ham xosdir. Ya’ni aholi sonining o‘sish sur’ati keyingi yillarda pasayganligini ko‘rish mumkin. 2006 yilda 1525,9 ming kishi yashagan.² Aholining o‘rtacha tabiiy ko‘payish darajasi yildan yilga pasayib borishi natijasida o‘rganilayotgan davrda o‘rtacha tabiiy ko‘payish 18,7 promillega teng bo‘lgan, bu daraja Andijon, Farg‘ona viloyatlaridan 0,5 promille, Namangan viloyatidan 2,2 promillega kam demakdir. Buni tug‘ilish darajasining keskin kamayganligi va tashqi migratsiya bilan izohlash mumkin.³

Buxoro viloyati tug‘ilish va aholining ko‘payishi bo‘yicha respublika hududlari ichida past darajada e’tirof etiladi. Ayni paytda o‘lim darajasi bo‘yicha ham quyi viloyatlar qatorida bo‘lib, tadqiqot yillarda o‘rtacha o‘lim darajasi 5,0 promillega teng bo‘lgan. Buxoro viloyatida o‘lim ko‘rsatkichlari aholining

¹Estestvennoye dvijeniye naseleniya Respubliki Uzbekistan. Statisticheskiy sbornik. Goskomstat Uzbekistana. – Tashkent, 2006. – S.95.

²Chislennost naseleniya Uzbekistana. Stat.sbor –Tashkent, 2007. –S.189.

³Estestvennoye dvijeniye naseleniya Respubliki Uzbekistan. Statisticheskiy sbornik. Goskomstat Uzbekistana. – Tashkent, 2006. – S.95.

tabiiy o'sishiga ta'siri katta emasday tuyulsada, lekin uni oldini olish chora-tadbirlarini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Navoiy viloyati aholisi 2006 yil holatiga 812,7 ming kishiga teng bo'lgani holda, mintaqada aholisi kam hudud hisoblanadi. Respublika bo'yicha bирgina Sirdaryo viloyati aholisidan 135,8 ming kishiga ko'p hamda respublika aholisining 3,1 foizini o'z ichiga olgan. O'r ganilayotgan davrda Navoiy viloyatida ham tug'ilish darajasining kamayishi kuzatiladi. O'rtacha tug'ilish darajasi 22,2 promillega teng bo'lib, Farg'ona vodiysi viloyatlaridan 2,2/ 3,4/ 2,1 promillega kam edi.

Tabiiy ko'payishdagi o'zgarishlar ham tug'ilish darajasidagi o'zgarishlarni takrorlaydi. Ayni paytda o'lim darajasi bo'yicha Zarafshon mintaqasi xususiyatlariga hamohang ravishda quyi viloyatlar qatoridan o'rin olgan, ya'ni o'lim darajasi bo'yicha Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Farg'ona, Andijon viloyatlaridan past daraja kuzatiladi. Navoiy viloyati respublika viloyatlari ichida nisbatan katta maydonga ega (Qoraqalpog'iston Respublikasidan keyin) va urbanizatsiya darajasi bo'yicha ham respublikada (Qoraqalpog'iston Respublikasidan keyin) oldingi o'rinda bo'lgan.¹

Quyi Amudaryo mintaqasi 1991-2006 yillar orasidagi tug'ilish va tabiiy ko'payishning o'rtacha darajasi (Toshkent va Mirzacho'l mintaqasidan keyin) va o'limning o'rtacha ko'rsatkichini yuqoriligi (Toshkent regionidan keyin) bilan ajralib turgan. Bu holat ushbu hududda bolalar o'limining nisbatan ko'pligi bilan izohlanadi. Aholisi respublika aholisining 11,5 foizni tashkil etgan.² Ushbu mintaqani Farg'ona vodiysi bilan solishtirganda tabiiy ko'payishning o'rtacha darajasi

¹Chislennost naseleniya Uzbekistana. Goskomstat Uzbekistana. Stat. sbor. -Tashkent, 2007. -S.189.

²Estetstvennoye dvijeniye naseleniya Respublikii Uzbekistan. Stat. sbornik. Goskomstat Uzbekistana. - Tashkent, 2006. -S.95.

bo'yicha 0,3 promillega, o'limning o'rtacha darajasi bo'yicha 0,4 promillega yuqori bo'lgan.

Keyingi yillarda ushbu mintaqada tug'ilish darajasining eng yuqori ko'rinishi kuzatilgan, lekin o'lim ko'rsatkichining yuqoriligi tabiiy ko'payishga o'z ta'sirini ko'rsatib keladi. Shuning uchun tabiiy ko'payish bo'yicha eng yuqori darajaga doimo Janubiy mintaqaga ega bo'lgan. Aholining zichligi bo'yicha (9,5 kishi) quyi toifadagi hudud hisoblangan.¹

Qoraqalpog'iston Respublikasi ham Quyi Amudaryo mintaqasida bo'lib, 1571,9 ming kishi yashagan. O'zbekiston Respublikasining yuqori ma'muriy hududiy tuzilmalari orasida urbanizatsiya darajasi bo'yicha nisbatan yuqori toifadagi hudud hisoblanadi. Shaharda 763,9 ming, qishloqda 808,0 ming kishi yashagan.²

Xorazm viloyatida shahar aholisi zich joylashgan.³ Hududdagi demografik o'zgarishlarning asosiy sabablari tug'ilishning kamayishi bilan birga, aholining ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik yashash sharoitiga ham bog'liq bo'ldi.⁴

Quyi Amudaryo mintaqasining urbanistik tarkibi ham o'ziga xos.⁵ Ushbu mintaqadagi Xorazm viloyatida respublika aholisining 5,5 foizi, ya'ni 1453,9 ming kishi istiqomat qilgan. Shahar aholisi 322,3 ming kishini tashkil etsa, qishloq aholisi esa 1131,6 ming kishidan iborat bo'lib, respublika bo'yicha urbanizatsiya darajasi past hududlar tarkibidadir. Xorazm viloyati tug'ilish ko'rsatkichi bo'yicha respublikada o'rtacha darajada, o'lim ko'rsatkichi esa nisbatan yuqori darajadagi hududdir. Tug'ilish va tabiiy ko'payishning o'rtacha darajasi bo'yicha respublikada beshinchli o'rinni egallagan. 1991-2006

¹Plotnost naseleniya po regionam Respublikи Uzbekistan 2001. Statisticheskiy sbornik. -Tashkent, 2002. -S.13; Plotnost naseleniya. Statisticheskiy yejegodnik regionov Uzbekistana. -Tashkent, 2005. -S.14.

²Chislennost naseleniya Uzbekistana. Goskomstat Uzbekistana. Stat. sbor. -Tashkent, 2007. -S.58.

³Rozimova Yo. Shaharlar taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari //Jamiyat va boshqaruv.-Toshkent, 2009. 1-son. -B.108.

⁴Rozimova Yo. O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari (Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida. 1991-2007 yy). Tarix. fan. nom. diss. ... avtoref. -Toshkent, 2010. -B.23.

⁵Rozimova Yo. Shaharlar taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari //Jamiyat va boshqaruv. -Toshkent, 2009. 1-son. -B.108.

yillar oralig‘idagi o‘limning o‘rtacha darajasi bo‘yicha to‘rtinchi o‘rinda kuzatiladi. Aholi zichligi har kvadrat kilometrga 233,7 kishidan to‘g‘ri kelgan va Andijon, Farg‘ona, Namangan viloyatlaridan keyingi o‘rinda bo‘lib, respublika bo‘yicha ikkinchi darajadagi hududlar tarkibida bo‘lgan. Aholi zichligi har kvadrat kilometrga Navoiy viloyatidan 226,4 kishi, Qoraqalpog‘iston Respublikasidan 224,2 kishi va Buxoro viloyatidan 195,7 kishiga ko‘p demakdir.

Sirdaryo va Jizzax viloyatlarini o‘z ichiga olgan Mirzacho‘l mintaqasida 1728,3 ming kishi joylashgan bo‘lib, respublika aholisining 6,6 foiziga teng bo‘lgan. Tug‘ilishning 22,3 foizi, tabiiy ko‘payishining 18,7 foizi ushbu mintaqaga hissasiga to‘g‘ri kelgan. Shahar aholisi 526 ming kishi bo‘lib, urbanizatsiya darajasi (30,4 %) respublika darajasidan past bo‘lgan.¹

Sirdaryo viloyatida 676,9 ming aholi yashagan, bu respublika aholisining 2,6 foizi bo‘lib, respublikada aholi salmog‘i eng kam hudud hisoblangan. Aholining tug‘ilish koeffitsienti 22,4 promille, tabiiy ko‘payish koeffitsenti 16,9 promillega teng bo‘lgan. Tug‘ilish (sakkizinch o‘rinda), tabiiy ko‘payish (yettinchi o‘rinda) va o‘limning o‘rtacha darajasi (oltinchi o‘rinda) bo‘yicha ham o‘rtacha toifadagi hudud sifatida e’tirof etilgan. Shuni aytib o‘tish kerakki, mustaqillikning dastlabki yillarida ushbu hudud o‘lim ko‘rsatkichida to‘rtinchi o‘rinda edi.² Urbanizatsiya darajasi 31,2 foiz, bu respublika darajasidan past ko‘rsatkich bo‘lib, viloyatlar ichida o‘rtacha darajaga teng. Shahar aholisi 211,5 ming kishi, qishloq aholisi 465,4 ming kishini tashkil etgan.

Mirzacho‘l mintaqasi o‘rganilayotgan yillarda tabiiy ko‘payishning o‘rtacha darajasi bo‘yicha Farg‘ona mintaqasidan 1,7 promille yuqori, o‘limning o‘rtacha darajasi bo‘yicha esa 0,3 promillega kamligi bilan farqlanadi.

¹Chislennost naseleniya Uzbekistana. Goskomstat Uzbekistana. Stat. sbor. –Tashkent, 2007. –S.189.

²Estetstvennoye dvijeniye naseleniya Respubliki Uzbekistan. Statisticheskiy sbornik. Goskomstat Uzbekistana. – Tashkent, 2006. –S.95.

Hududi bo'yicha respublikada avvalgi o'rinda turuvchi Jizzax viloyatida mamlakat aholisining 4,0 foizi, ya'ni 1051,4 ming kishi istiqomat qilgan, bir kvadrat kilometrga 49,8 kishi to'g'ri kelgan, bu Andijon viloyatidan 517,3 kishi kam demakdir. Shahar aholisi 314,5 ming kishi, qishloq aholisi 736,9 ming kishiga teng. Urbanizatsiya darajasi (29,9%) bo'yicha respublikada o'rtacha daraja kuzatiladi. Tug'ilish va tabiiy ko'payishning o'rtacha darajasi bo'yicha respublikada uchinchi o'rinda, o'limning o'rtacha darajasi bo'yicha o'rta toifadagi hudud hisoblangan. Ushbu hududda ham mustaqillikning dastlabki yillardan o'lim darajasi pasayib borayotgani sababli tabiiy ko'payish yuqori bo'lgan.

Janubiy mintaqada aholi soni 4345,5 ming kishiga teng bo'lib, Surxondaryo viloyatida 1925,1 ming kishi, Qashqadaryo viloyatida 2420,4 ming kishi istiqomat qilgan. Ushbu mintaqada respublika aholisining 16,5 foizi yashagan. Hududda shahar aholisi 967,9 ming kishi, qishloq aholisi 3377,6 ming kishi bo'lib, respublikada urbanizatsiya darajasi nisbatan past ko'rsatkichga ega mintaqaga hisoblangan.¹

1991-2006 yillar aholi ko'payishi respublika hududlariga nisbatan eng yuqori daraja kuzatilib, bu qishloq aholisining tabiiy ko'payish ko'rsatkichini yuqoriligi bilan izohlanadi. Masalan, Janubiy mintaqada tug'ilishning o'rtacha darajasi (birinchi) yuqori va o'limning o'rtacha darajasi (oxirgi o'rinda) nisbatan past bo'lganligi uchun respublika bo'yicha tabiiy ko'payishning eng yuqori darajasiga erishgan.²

Surxondaryo viloyati yuqorida aytib o'tilganidek, tug'ilish va tabiiy ko'payish darajasi bilan respublikada eng yuqori darajasiga ega bo'lgan. Qashqadaryo viloyati esa respublikada ikkinchi o'ringa to'g'ri keladi. Urbanizatsiya darajasi o'rganilganda Qashqadaryo (24,7 %) va Surxondaryo

¹Chislennost naseleniya Uzbekistana. Stat. sbor. Goskomstat Uzbekistana. –Tashkent, 2007. –S.189.

²Estetstvennoye dvijeniye naseleniya Respubliki Uzbekistan. Statisticheskiy sbornik. Goskomstat Uzbekistana. –Tashkent, 2006. –S.95.

viloyatlarida (19,2 %) respublikada eng past ko'rsatkich kuzatiladi, ya'ni qishloq aholisining salmog'i bo'yicha Surxondaryo viloyati respublikada yetakchi hududdir.

Demak, tug'ilish va tabiiy ko'payish yuqori bo'lgan hududlar Janubiy, Quyi Amudaryo va Mirzacho'l mintaqalari hisoblanadi. Ushbu hududlarda respublika aholisining 34,6 foizi istiqomat qilgan. Tug'ilayotgan chaqaloqlarning ulushi esa 36,9 foizni tashkil etgan.

Tug'ilish va tabiiy ko'payishning o'rtacha ko'rsatkichi Zarafshon va Fag'ona mintaqalariga to'g'ri kelgan. Bu regionlarda tug'ilayotgan chaqaloqlar ulushi 2006 yilda 47,8 foizga teng bo'lgan.¹

Darhaqiqat, mustaqillikdan avvalgi yillarda ham har bir davrda yuz bergen siyosiy, iqtisodiy jarayonlar demografik holatga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Natijada, 1991-2006 yillar orasida respublikada tug'ilish darajasi 13,4 promillega kamaygan. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tug'ilish ko'rsatkichining pasayishi-boshqa viloyatlarga nisbatan yuqori darajaga yetgan. Namangan va Jizzax viloyatlarida ham tabiiy ko'payish darajasi kabi tug'ilish darajasining sezilarli kamayishini kuzatish mumkin. O'r ganilayotgan davrda tug'ilishning kamayib borishini minimal holatiga Toshkent shahrini misol qilish mumkin. Ayni paytda ushbu hududda respublika bo'yicha tug'ilish koeffitsientining ham past darajasi kuzatiladi.

Tahlil qilinayotgan yillarda tug'ilish ko'rsatkichlari o'n olti ustundan to'qqiztasida Surxondaryo viloyati birinchi o'rinda bo'lgan. O'n bitta ustunda Qashqadaryo viloyati ikkinchi o'rinda, Jizzax viloyati o'n bitta ustunda uchinchi o'rinda, Samarqand viloyati esa o'n bitta ustunda to'rtinchi o'rinda bo'lgani aniqlangan, bu natija ushbu viloyatlar doimo respublika

¹Estetstvennoye dvijeniye naseleniya Respubliki Uzbekistan. Stat. sbor. –Tashkent, 2006. –S.95.

hududlari orasida eng yuqori darajaga erishib kelganidan dalolat beradi.¹

Respublika viloyatlari aholini 1991-2006 yillar davomidagi tug‘ilishning o‘rtacha darajasi bo‘yicha quyidagi guruahlarga ajratish mumkin:

-tug‘ilish koeffitsientini o‘rtacha darajasi yuqori bo‘lgan viloyatlar (26,8 %-29,2 %) – Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Samarkand;

-o‘rtacha hududlar (24,6 %-26,0 %) – Xorazm, Namangan, Sirdaryo, Farg‘ona, Andijon viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi;

-tug‘ilishning o‘rtacha darajasi past hududlar (16,2 %-23,0 %) – Buxoro, Navoiy, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahri.²

Yuqorida aytib o‘tilganidek, mamlakatimiz mintaqalari o‘zining demografik vaziyati, ekologik holati, biologik omillar va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan bir-biridan farqlanadi. Albatta, ushbu tafovutlar o‘lim darajasida ham o‘z ifodasini topgan. Asrlar o‘tib tabiat muvozanati sezilarli darajada o‘zgarishi uning atrofida yashayotgan aholi salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Ayniqsa, Orol dengizining qurib borishi tabiatga, ekologik muhitga uning ziyonini yildan yilga oshib borishiga olib kelgan. Sanoat shaharlarini, transport vositalarini atrof-muhitga ta’siri, cho‘l, tog‘ oldi hududlaridagi muammolar, aholi zichligining oshishi, tabiiy ofatlar ham o‘limning ko‘payishiga olib keladi. Bundan tashqari, aholining turmush tarzi, oila va jamiyatda sog‘lom muhit, kasb-korlik, mehnat faoliyati, gigiena qoidalariga rioya qilish holati, tibbiy xizmatdan foydalanish madaniyati kabi omillarning salbiy ko‘rinishlari ham o‘limga yaqinlashtiradi.

Tayanch so‘zlar: tug‘ilish, o‘lim, tabiiy ko‘payish, yoshlar salmog‘i, region, urbanizatsiya, tashqi migratsiya, aholi zichligi, tug‘ilish koeffitsienti, tabiat muvozanati, demografik vaziyati,

¹Estetstvennoye dvijeniye naseleniya Respubliki Uzbekistan. Stat. sbor. –Tashkent, 2006. – S.95.

²o‘sha joyda.

ekologik holat, biologik omillar, aholining turmush tarzi, oila va jamiyatda sog‘lom muhit, kasbkorlik, mehnat faoliyati, gigiena qoidalarini.

Savol va topshiriqlar:

1. Respublikada tug‘ilishning eng past ko‘rsatkichi qaysi hududga to‘g‘ri kelgan?
2. Hududlarda o‘lim darajasining nisbatan yuqori bo‘lishiga qanday demografik omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi?
3. Respublika bo‘yicha aholisi eng ko‘p va zinch joylashgan hududni aniqlang.
4. 1991-2006 yillar sarhisobiga ko‘ra Farg‘ona vodiysida tug‘ilishning o‘rtacha darajasi (24,8 %) bo‘yicha respublika mintaqalari ichida nechanchi o‘rinni egallagan?
5. Farg‘ona regionida O‘zbekiston aholisini 27,9 foizi yashagan, Andijon, Namangan, Farg‘ona viloyatlarida qancha foiz aholi yashagan?
6. Farg‘ona vodiysida shahar aholisi 2291,7 ming nafar bo‘lib, urbanizatsiya darajasi necha foizni tashkil etgan?
7. Samarqand, Buxoro, Navoiy viloyatlari qaysi region hududlarida joylashgan?
8. Zarafshon vohasi 2006 yilda respublika aholisining qanchasi ro‘yxatga olingan?
9. Zarafshon vohasining o‘rtacha o‘lim darajasi Farg‘ona mintaqasiga nisbatan kamligi bilan farqlanadimi yoki kamligi bilanmi?
10. Respublikada aholisi eng ko‘p joylashgan (1998 yildan buyon) viloyat qaysi?
11. Aholi zichligi bo‘yicha Samarqand viloyati qaysi viloyatlardan keyingi o‘rinni egallagan?
12. Samarqand viloyatida urbanizatsiya darajasi necha foizni tashkil etgan?

13. Samarqand, Buxoro, Navoiy viloyatlarining qaysi birida shahar aholisi nisbatan ko‘proq bo‘lgan?
14. Buxoro viloyati tug‘ilish va aholining ko‘payishi bo‘yicha respublika hududlari ichida qanday darajada e’tirof etiladi?
15. Navoiy viloyati aholisi respublikaning qaysi viloyati aholisidan ko‘proq bo‘lgan?
16. Respublika viloyatlari ichida nisbatan katta maydonga ega viloyat qaysi?
17. Qaysi hudud bolalar o‘limining nisbatan ko‘pligi bilan izohlanadi?
18. Qoraqalpog‘iston Respublikasi ham Quyi Amudaryo mintaqasida bo‘lib, 1571,9 ming kishi yashagan. O‘zbekiston Respublikasining yuqori ma’muriy hududiy tuzilmalari orasida urbanizatsiya darajasi bo‘yicha nisbatan qanday toifadagi hudud hisoblanadi?
19. Xorazm viloyatida qanday demografik muammolar bor?
20. Mirzacho‘l mintaqasi qaysi viloyatlarni o‘z ichiga oladi?
21. Sirdaryo viloyatida 676,9 ming aholi yashagan bo‘lib, respublikada aholi salmog‘i bo‘yicha qanday salohiyatga ega bo‘lgan?
22. Hududi bo‘yicha respublikada avvalgi o‘rinda turuvchi Jizzax viloyatida mamlakat aholisining 4,0 foizi, ya’ni qancha aholi istiqomat qilgan?
23. Janubiy mintaqaga qaysi viloyatlar to‘g‘ri keladi?
24. Surxondaryo viloyati tug‘ilish va tabiiy ko‘payish darajasi bilan respublikada qanday darajasiga ega bo‘lgan?
25. Qashqadaryo viloyati tug‘ilish va tabiiy ko‘payish darajasi bilan respublikada nechanchi o‘ringa to‘g‘ri kelgan?
26. Tug‘ilish va tabiiy ko‘payish yuqori bo‘lgan hududlar qaysi mintaqalari hisoblanadi?
27. Tug‘ilish koeffitsientini o‘rtacha darajasi yuqori bo‘lgan viloyatlarni ko‘rsating.

28. Tug‘ilish koeffitsienti o‘rtacha hududlar (24,6 %-26,0 %) dnganda qaysi hududlarni misol qilish mumkin.
29. Tug‘ilishning o‘rtacha darajasi past hududlarga misol keltiring.

2.3. Aholi orasida o‘lim ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi

Tadqiqot davrida respublikaning barcha hududlarida o‘lim darajasining biroz pasaygani kuzatilib, yanada pasayish tendensiyasiga ega. 1991 yildan 2006 yilgacha bo‘lgan davrda aholi o‘rtasida o‘lim koeffitsienti mos ravishda har ming kishiga 6,2 dan 5,3 promillega kamaydi. Respublika miqyosida sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar, ayollar, bolalar sog‘ligini yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar natijasida o‘rganilayotgan yillar oralig‘ida o‘lim holati 0,9 promillega qisqardi.

Toshkent regionidan keyin aholi o‘limining nisbatan baland ko‘rinishi Quyi Amudaryo mintaqasida (5,9 %) kuzatiladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida esa o‘limning mustaqillik yillaridagi o‘rtacha darajasi 6,0 promillega teng bo‘lib, mamlakat miqyosida nisbatan yuqori darajaga ega edi. Xorazm viloyatida (5,8 %) ham ushbu holat o‘z aksini topgan.¹ Albatta, ekologik vaziyat o‘lim ko‘rsatkichlarida namoyon bo‘lgan. Xususan, mustaqillikning dastlabki yillarida mintaqadagi yuqori daraja Qoraqalpog‘iston Respublikasida kuzatiladi.

O‘limning o‘rtacha darajasi Farg‘ona, Zarafshon, Mirzacho‘l mintaqalariga to‘g‘ri keladi. Surxondaryo va Qashqdaryo viloyatlari esa o‘lim ko‘rsatkichlari boshqa viloyatlardan past darajada bo‘lgan.

¹Estetstvennoye dvijeniye naseleniya Respublikи Uzbekistan. Stat. sbor. –Tashkent, 2006. –S.95.

1991-2006 yillarda o'limning o'rtacha darajasini respublikamizning yuqori ma'muriy-hududiy tuzilmalari bo'yicha taqqoslasak, natija quyidagilarda namoyon bo'lgan:

1. O'limning o'rtacha darajasi yuqori bo'lgan hududlar (o'rtacha ko'rsatkich 8,5 %-6,0 %) – Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi;

2. O'lim holati o'rtacha viloyatlar (o'rtacha ko'rsatkich 5,8 %-5,3 %) – Xorazm, Andijon, Farg'ona, Navoiy, Samarqand, Sirdaryo, Namangan;

3. O'limning o'rtacha darajasi nisbatan past hududlar (5,0%-4,6%) – Buxoro, Surxondaryo, Jizzax, Qashqadaryo viloyatlari.

O'limga olib keluvchi sabablarga ko'ra birinchi o'rinni qon aylanish tizimi xastaligi (ayollarning 65,6 % va erkaklarda 51,8 %), ikkinchi o'rinni erkak va ayollarda nafas olish a'zolari kasalliklari (mos ravishda 11,3 % va 12,0 %), uchinchi o'rinni ayollarda xavfli o'simtalar bilan bog'liq kasalliklar (vafot etgan ayollarning 7,3 % i), erkaklarda esa baxtsiz hodisalar, zaharlanish va shikastlanishlar (vafot etganlarning 12,5 % i) egallagan. Barcha asosiy sabablar bo'yicha (qon aylanish tizimi kasalliklaridan tashqari) o'lim holatlarida erkaklar o'limi ayollar o'limidan ko'proq uchraydi.¹

Xavfli o'simtalar bilan bog'liq kasalliklar tarkibida erkaklarda ko'proq oshqozon saratoni, traxeya, bronx va o'pka saratoni, limfatik va qon tomirlaridagi xavfli o'simtalar uchraydi. Ayollarda esa sut bezi saratoni, bachadon bo'yini saratoni hamda limfatik va qon tomirlardagi xavfli o'simtalar ko'proq kuzatilgan. 2004 yilda xavfli o'simtalar bilan bog'liq kasalliklarga chalingan bemorlar soni ayollar o'rtasida 53,5 foizni, erkaklar o'rtasida esa 46,5 foizni tashkil etdi. Erkak va ayollar o'rtasida silning faol ko'rinishi bilan kasallanish astasekinlik bilan bo'lsada, biroz o'sib borgan. Silning faol

¹O'zbekistonda gender tengligi. Faktlar va raqamlar. –Tashkent, 2005. –B.34.

ko‘rinishi bilan xastalangan erkaklar soni ayollarga qaraganda ancha ko‘p, 2004 yilda jami bemorlar ichida birinchi bor silning faol ko‘rinishi qayd etilgan ayollar ulushi 41,4 foizga, erkaklar ulushi 58,6 foizga teng bo‘ldi. Sil tufayli vafot etish holati ayollarda 1990 yilda har yuz ming kishiga 4,9 dan 2003 yilda 8,4 gacha o‘sgan, erkaklar o‘rtasida bu ko‘rsatkich mos ravishda 8,1 va 17,4 ga teng bo‘ldi.

Ayollar va erkaklarning ruhiy xastaliklari, alkogolizm va alkogol psixozlariga chalinganlar soni o‘sib bormoqda. Alkogolizm va alkogol psixozlar, giyohvandlik va taksikomaniya hamda ruhiy xastaliklarga chalinganlar orasida erkaklar ko‘pchilikni tashkil etadi.¹

Tayanch so‘zlar: o‘lim darajasi, sog‘liqni saqlash tizimi, qon aylanish tizimi xastaligi, nafas olish a’zolari kasalliklari, xavfli o‘sintalar bilan bog‘liq kasalliklar, baxtsiz hodisalar, zaharlanish, xavfli o‘sintalar, oshqozon saratoni, traxeya, bronx va o‘pka saratoni, limfatik va qon tomirlaridagi xavfli o‘sintalar, sut bezi saratoni, bachadon bo‘yini saratoni, limfatik va qon tomirlardagi xavfli o‘simta, ruhiy xastaliklar, alkogolizm, alkogol psixozlar, giyohvandlik, taksikomaniya, sog‘lomlashtirish dasturi, oilalarni rejalashtirish.

Savol va topshiriqlar:

1. Respublikamizda aholining o‘lim darajasiga qaysi omillar o‘zining ta’sirini ko‘rsatib kelgan?
2. 1991 yildan 2006 yilgacha bo‘lgan davrda aholi o‘rtasida o‘lim koeffitsienti mos ravishda har ming kishiga qanchaga kamaydi.
3. Respublika miqyosida sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar, ayollar, bolalar sog‘ligini yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar natijasida

¹O‘zbekistonda gender tengligi. Faktlar va raqamlar. –Tashkent, 2005. –B.35.

o‘rganilayotgan yillar oralig‘ida o‘lim holati necha promillega qisqardi?

4. Toshkent regionidan keyin aholi o‘limining nisbatan baland ko‘rinishi qaysi mintaqasida (5,9 %) kuzatilgan?
5. Mustaqillikning dastlabki yillarida Quyi Amudaryo mintaqadagi yuqori daraja uning qaysi hududida kuzatilgan?
6. O‘limning o‘rtacha darajasi respublikaning qaysi mintaqalariga to‘g‘ri kelgan?
7. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida o‘lim ko‘rsatkichlari boshqa viloyatlardan ... darajada bo‘lgan.
8. O‘limning o‘rtacha darajasi yuqori bo‘lgan hududlarni sanab o‘ting.
9. O‘lim holati o‘rtacha viloyatlari (o‘rtacha ko‘rsatkich 5,8 %-5,3 %)ga misol keltiring.
10. O‘limning o‘rtacha darajasi nisbatan past hududlar (5,0%-4,6%) haqida ma’lumot bering.
11. O‘zbekistonda aholining o‘limiga olib keluvchi sabablarni ko‘rsating.
12. O‘zbekistonda aholi orasida qanday kasalliklar ularning o‘limiga sabab bo‘lmoqda?

2.4. Respublikada go‘daklar o‘limining kamayishi

Sog‘lomlashtirish dasturi va oilalarni rejalashtirish natijasida o‘rganilayotgan davrda respublikada go‘daklar o‘limini ham kamayishi holati yuz bergan, ya’ni 1991 yilda 35,5 promilleni tashkil etgan bo‘lsa, 2006 yilda esa 14,3 promillega teng bo‘lgan. Ushbu yillarda bu jarayon 21,2 promillega qisqargan.¹

Respublikaning hududlari bo‘ylab o‘rganilganda ushbu holatni turli xil ko‘rinishlari namoyon bo‘ladi. 2006 yil sarhisobi

¹Estetstvennoye dvijeniye naseleniya Respublikи Uzbekistan. Stat. sbor. –Tashkent, 2006. –S.95.

bo'yicha Toshkent shahrida go'daklar o'limi nisbatan yuqori darajaga ega bo'lgan. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Farg'ona, Xorazm viloyatlarida go'daklar o'limi darjasini yuqori bo'lsa, Navoiy, Surxondaryo, Jizzax viloyatlarida esa minimal ko'rinishga ega bo'lgan. Bunday holatga hududdagi tabiiy sharoit, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darjasini, ekologik vaziyat o'z ta'sirini ko'rsatgan.

O'zbekiston mintaqalarida 1991-2006 yillar misolida go'daklar o'limining o'rtacha darjasini kuzatilganda turli tafovutlar ayon bo'lgan. Masalan, Quyi Amudaryo mintaqasining aholisi orasida go'daklar o'limining mustaqillik davridagi o'rtacha demografik tarixida boshqa regionlardan yuqori daraja kuzatilgan. Bu Farg'ona mintaqasidan 4,1 promille, Zarafshondan 5,6 promille, Mirzacho'lidan 3,6 promille, Janubiy mintaqadan 3,3 promille ko'p demakdir. Ayniqsa, mustaqillikning dastlabki sakkiz yilda go'daklar o'limi yuqori bo'lgan, ya'ni mustaqillikning keyingi sakkiz yildan 13,6 promillega ko'p yuz bergen.

Yilma-yil kuzatuvtular natijalariga ko'ra mazkur mintaqasi, ayniqsa Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisi orasida 16 yillik o'rtacha darajada go'daklar o'limining eng yuqori ko'rsatkichi ko'zga tashlanadi. Bunga sabab, Orol dengizi muammosi natijasida demografik vaziyatda keskinlashuv yuz berishi bo'lgan. Bu holat bolalar o'limida yaqqol namoyon bo'lgan. Orol fojeasi Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazmning xalq xo'jaligiga jiddiy ta'sir ko'rsatyapti. Bu holat aholining ko'pchilik qismini tashkil qilgan qishloq aholisining ijtimoiy ahvolini og'irlashtiryapti.¹ Mustaqillik davridagi siyosat, ayniqsa Orol bo'yli aholisini himoya qilishga bag'ishlangan chora-tadbirlar, onalik va bolalikni muhofaza qilinishi natijasida go'daklar o'limining kamayishi yuz berdi.

¹Rozimova Yo. Urbanizatsiyaning rivojlanishi va ekologiya //Moziydan sado. -Toshkent, 2009. 1-son (41). – B.19.

Respublikaning Toshkent regionida ham go‘daklar o‘limi koeffisienti yuqori bo‘lgan. Ayniqsa, 2006 yilda eng yuqori ko‘rsatkich kuzatiladi. Janubiy mintaqada esa, mustaqillikning dastlabki yillarda yuqori daraja kuzatiladi. Aholi orasida ko‘p bolalik holatlari, homiladorlikdan saqlanish vositalaridan foydalanmaslik, farzand ko‘rishda oraliq masofani yaqinligi, tibbiy madaniyatni nisbatan pastligi, turli xil kasalliklarning mavjudligi oqibatida go‘daklar o‘limi mustaqillikning dastlabki sakkiz yilida, keyingi sakkiz yilidan 14,1 promille ko‘p bo‘lgan. Mustaqillik davrida sog‘liqni saqlash tizimida olib borilgan ijobjiy ishlar natijasida keyingi yillarda ushbu hududda ham go‘daklar o‘limining kamayib borishiga erishildi. Go‘daklar o‘limining eng quyi darajasi Zarafshon mintaqasida kuzatiladi.

2006 yilda go‘daklar o‘limining ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori bo‘lgan hududlarga (23,2 %-17,1 %) Toshkent shahri, Farg‘ona viloyati va Qoraqal-pog‘iston Respublikasini kiritish mumkin. Ushbu ko‘rsatkichning nisbatan past ko‘rinishi (10,5 %-9,6 %) Navoiy, Surxondaryo, Jizzax viloyatlarida namoyon bo‘lgan.

Go‘daklar ko‘proq nafas olish yo‘li kasalliklari tufayli va perinatal (0,6 kunlik) davrida nobud bo‘lgan (69,1%, 53,1%).¹ Ushbu holat Qoraqalpog‘iston Respublikasida (106,6%, 48,8%), Toshkent shahri (89,1 %, 122,3 %), Xorazm (94,9 %, 54,8 %) viloyatlarida respublikaning boshqa hududlariga nisbatan yuqori edi.

Demak, respublikada aholining tabiiy ko‘payish darajasi ta’sir etuvchi omillar natijasida o‘zgarib borgan. Tabiiy ko‘payish 1991 yilda eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan va qariyb 600 ming kishini tashkil qilgan.² Yuqoridagi holat

¹Estestvennoye dvijeniye naseleniya Respubliki Uzbekistan. Stat. sbornik. –Tashkent, 2006. –S.28.

²Ubaydullaeva R., Ata-Mirzaev O.,Umarova N. O‘zbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi. Toshkent: Universitet, 2006. –B.13.

respublikani shahar va qishloqlariga ham taaluqli bo‘lgan va keyingi yillarda asta-sekin pasayib borgan.¹

Soha mutaxassislarining fikricha, o‘zbek oilalarida bola soniga va tarbiyasiga bo‘lgan munosabatlar, ota-onalar va farzandlar orasidagi ruhiy-emotsional munosabatlarning anchayin o‘zgarib, oilada farzandlar soniga bo‘lgan munosabatlarda, bolalarning o‘rtacha soni kamayishida, ota va onaning oiladagi an‘anaviy o‘rnini va vazifalari birmuncha transformatsiyaga uchraganlikda, bola tarbiyasida oila a’zolarining ishtiroki va mas’uliyat darajasi kuchayganligida o‘z aksini topmoqda.²

Ta’kidlashlaricha, farzand ko‘rish uchun biologik maqbul yosh 20-30 yosh hisoblanadi. Ona va bola salomatligini saqlash borasida faqat farzand tug‘ilishidagi ayol yoshigina emas, balki har bir farzand tug‘ilishi orasidagi muddat ham muhim o‘rin tutadi. Ilmiy-amaliy kuzatuvlar farzand tug‘ilganidan so‘ng ona organizmi homila rivojlanishi uchun sarflagan biologik imkoniyatlarini to‘liq tiklab olishi uchun tug‘ish oralig‘idagi davrni uch yil bo‘lishi lozimligini ko‘rsatmoqda.

Ushbu tadqiqotni mohiyatini har bir ayol hamda barcha katta yoshdagi oila a’zolari to‘g‘ri qabul qilganda, nafaqat tug‘ma nuqsonli, chala va kichik vaznli bolalar tug‘ilishini oldi olinadi, balki farzandlarning barkamol o‘sishini ta’minalash imkoniyatini yaratadi.

Shunday ekan, homiladorlik, tug‘ruq va undan keyingi jarayonlarni doimo nazoratini ta’minalash, davolash va sog‘lomlashtirish chora-tadbirlarini ko‘rish, tibbiy-ijtimoiy tadbirlarni yanada kengaytirish shu kunning muhim vazifasidir.

1991 yilda shaharlarda tug‘ilish koeffitsienti 26,7 promillega, qishloqlarda 38,8 promillega teng bo‘lgan, ya’ni o‘rtadagi farq 13,1 promilleni tashkil etgan. Ushbu farq 16 yil

¹Estestvennoye dvijeniye naseleniya Respubliki Uzbekistan. Stat. sbor. –Tashkent, 2006. –S.95.

²Ubaydullaeva B. O‘zbek oilalarida farzand tarbiyasi masalalari //O‘zbekiston tarixi. 4-son, –Toshkent, 2008. –B.35.

ichida qisqarib borib, 2006 yilda 4,8 promille darajada bo‘lgan. Natijada, respublika shaharlarida bo‘lgani kabi qishloq aholisi tarkibida ham tug‘ilish va aholining tabiiy ko‘payish darajasida kamayish yuz bergan.

O‘zbekiston qishloq hududlarida 2005 yilda tug‘ilish darjasasi 22,1 promille bo‘lgan holda Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarining tug‘ilish darajasini respublika darajasidan yuqoriligi qayd etiladi, vaholanki mazkur hududlarda respublika qishloq aholisining 75,7 foizi yashagan. Ayniqsa, Surxondaryo viloyatida qishloq aholisi jami aholining 80,8 foizini tashkil etgan. Qolgan viloyatlarda respublika darajasidan past ko‘rsatkich e’tirof etiladi. Qishloqlarda tug‘ilishning eng yuqori darjasasi Jizzax viloyatida kuzatilsa, Toshkent viloyati qishloqlari esa eng past ko‘rsatkichga ega edi.

Respublika shaharlarida esa 2005 yilda tug‘ilish darjasasi 17,3 promille teng bo‘lgan. Bu darajadan Farg‘ona, Toshkent, Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro viloyatlari va Toshkent shahri ko‘rsatkichlari past hisoblanadi, qolgan viloyatlar ko‘rsatkichi respublika ko‘rsatkichidan yuqori bo‘lgan. Shahar aholisining tug‘ilish darjasasi bo‘yicha eng yuqori daraja Sirdaryo viloyatiga, eng quyi daraja esa Buxoro viloyatiga to‘g‘ri kelgan.¹

Respublika shahar aholisining tug‘ilish koefitsientini 1991-2005 yillar oralig‘idagi o‘rtacha darjasasi 20,1 promillega yetgan. Namangan, Andijon, Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax, Sirdaryo, Farg‘ona viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi shahar aholisining tug‘ilishdagi o‘rtacha darjasasi respublika ko‘rsatkichidan balandligi kuzatilgan. Toshkent shahri, Toshkent, Buxoro viloyatlarida esa tug‘ilishning o‘rtacha darjasasi bo‘yicha respublikada eng past ko‘rsatkich xukm surgan.

¹Inson taraqqiyoti to‘g‘risida ma’ruza. –Toshkent, 1999. –B.95; Demograficheskiy yejegodnik Uzbekistana. – Tashkent, 2004. –S.122; yestestvennoye dvijeniye naseleniya Respublikи Uzbekistan. –Tashkent, 2006. –S.95.

Respublikaning shahar va qishloqlari aholisi o'lim darajasi bo'yicha ham bir-biridan farqlanadi. O'rganilayotgan yillarda shahardagi o'lim darajasi qishloqlardan doimo nisbatan yuqoriligi e'tirof etiladi. Masalan, 2005 yilda shaharlarda o'lim 6,6 promillega teng bo'lsa, qishloqlarda bu 4,7 promilleni tashkil etdi. O'rtacha farq 1,9 promille.¹ 1991-2005 yillar oralig'ida shaharlarda o'lim darajasi 0,6 promillega, qishloqlarda 1,6 promillega qisqargan.

1993-2005 yillar misolida shahar aholisini o'rtacha o'lim darajasi 6,8 promillega teng edi. O'limning shahar aholisi orasida o'rtacha darajasining yuqori ko'rinishi Toshkent regioni (8,3 %) viloyatlarida yuzaga kelgan, ya'ni Toshkent shahrida o'limning o'rtacha darajasi respublika darajasidan 1,5 promillega, Toshkent viloyatida esa 1,3 promillega ko'p bo'lgan.²

Shahar aholisining o'rtacha o'lim darajasi bo'yicha Toshkent regionidan keyingi daraja Farg'ona mintaqasida kuzatiladi. Bu hududning Andijon va Farg'ona viloyatlarida o'lim darajasi Namangan viloyati darajasidan yuqori edi.

Shahar aholisi orasida o'limning o'rtacha darajasini past ko'rinishi Janubiy mintaqada yuz bergen. Ayniqsa, Qashqadaryo viloyati respublika bo'yicha esa past darajaga ega bo'lib kelgan.

Qishloq aholisini o'rtacha o'lim daraja bo'yicha Toshkent, Farg'ona, Quyi Amudaryo mintaqalari respublika darajasidan yuqori ko'rsatkichga ega. Ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent viloyatida nisbatan yuqori ko'rsatkich kuzatiladi.³

Xulosa qilib aytganda, 1991-2006 yillar davomida O'zbekiston Respublikasining demografik jarayonlarida

¹Demograficheskiy yejegodnik Uzbekistana. -Tashkent, 2004. -S.122; yestestvennoye dvijeniye naseleniya Respubliki Uzbekistan. Stat. sbor. -Tashkent, 2006. -S.95.

²Inson taraqqiyoti to'g'risida ma'ruza. -Tashkent, 1999. B.95; Demograficheskiy yejegodnik Uzbekistana. Goskomstat Respubliki Uzbekistana. Statisticheskiy sbornik. -Tashkent, 2006. -S.118.

³Demograficheskiy yejegodnik Uzbekistana. -Tashkent, 2004. -S.122; yestestvennoye dvijeniye naseleniya Respubliki Uzbekistan. Statisticheskiy sbornik. -Tashkent, 2006. -S.95.

o‘zgarishlar yuz berdi. Bunga respublika hududlaridagi demografik jarayonlar, ya’ni tug‘ilish, o‘lim ko‘rsatkichlari, aholining jinsiy, milliy, yosh, hududiy tarkibi, ijtimoiy-iqtisodiy va geografik omillar hamda ekologik vaziyat o‘z ta’sirini ko‘rsatib kelgan. Natijada 1991 yilda tabiiy ko‘payish 28,3 promilledan 2006 yilda 15,8 promillega tushgan. Ushbu holatga ayniqsa, tug‘ilish va o‘lim ko‘proq ta’sir etgan. Masalan, tug‘ilish koeffitsienti o‘rganilayotgan yillarda 1,3 martaga, o‘lim 0,9 promillega qisqargan. Tabiiy ko‘payish yuqori bo‘lgan hududlarda uning pasayishi ham yuqori bo‘lishi bilan birga, tabiiy ko‘payishning past ko‘rsatkichi kuzatilgan hududlarda uning pasayishi sekinlik bilan borgan.

1991-2006 yillar orasida respublika hududlaridagi tabiiy ko‘payishning o‘rtacha darajasi Janubiy va Mirzacho‘l mintaqalarida nisbatan yuqori ko‘rinishda namoyon bo‘lgan. Tabiiy ko‘payishning o‘rtacha darajasi bo‘yicha Quyi Amudaryo mintaqasi uchinchi, Zarafshon vohasi to‘rtinchi, Farg‘ona vodiysi esa beshinchi hamda Toshkent regioni oltinchi o‘rinda e‘tirof etiladi.

O‘rganilayotgan davrning birinchi davriga nisbatan ikkinchi davrida tabiiy ko‘payish ko‘rsatkichi 7,4 promillega kamaygan. Farg‘ona mintaqasi aholi salmog‘i bilan birga uning zichligi bo‘yicha ham respublikada yetakchi hisoblanadi.

Tug‘ilish va o‘limning o‘rganilayotgan yillardagi o‘rtacha darajasi hisoblab chiqilganda, Farg‘ona mintaqasi respublika bo‘yicha o‘rta toifadagi hududlar qatoridan o‘rin olgan.

Respublika bo‘yicha aholi qon aylanish tizimi xastaliklari, nafas olish a’zolari, o‘sintalar bilan bog‘liq kasalliklar bilan ko‘proq hayotdan ko‘z yumgan. Sog‘lomlashtirish dasturlari va oilani rejalashtirish natijasida go‘daklar o‘limi o‘rganilayotgan yillarda 21,2 promillega qisqargan, lekin respublika bo‘yicha 2006 yilda go‘daklar o‘limining eng yuqori darajasi Toshkent

shahri, Farg'ona viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasida kuzatilgan.

Shahar aholisining o'rtacha o'lim darajasi bo'yicha Toshkent regionidan keyingi daraja Farg'ona mintaqasida kuzatiladi. Bu hududning Andijon va Farg'ona viloyatlaridagi o'lim darajasi Namangan viloyati darajasidan yuqori bo'lган.

Ushbu bobda ko'rsatib o'tilgan masalalar bo'yicha kuyidagi xulosalarga to'xtalib o'tamiz: Tadqiqot yillarida O'zbekiston Respublikasining demografik jarayonlarida o'zgarishlar yuz berdi. Boshqa davlatlardan farqli xususiyati ham ushbu jarayonlarda ko'proq namoyon bo'ldi, ya'ni aholi sonining o'sish sur'ati hamda tug'ilish va o'limning kamayishi, aholi zichligi va joylashuvini o'zgarishi, yosh va jins tarkibidagi mutanosiblik, o'rtacha umr ko'rish darajasini ortishi, nikoh va ajralishni sekinlashuvi, mehnatga layoqatlilar salmog'ini ortishi, migratsiyani faollahuvi bilan izohlanadi.

Tayanch so'zlar: Sog'lomlashtirish dasturi, oilalarni rejalashtirish, go'daklar o'limi, tabiiy sharoit, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, ekologik vaziyat, demografik tarix, bolalar o'limi, Orol bo'yi, onalik va bolalikni muhofaza qilinishi, farzand ko'rishda oraliq masofani yaqinligi, tibbiy madaniyat, sog'liqni saqlash tizimi, nafas olish yo'li kasalliklari, perinatal, homiladorlik, tug'ruq.

Savol va topshiriqlar:

1. Sog'lomlashtirish dasturi va oilalarni rejalashtirish natijasida o'rganilayotgan davrda respublikada go'daklar o'limini ham kamayishi holati yuz bergen, ya'ni 1991 yilda 35,5 promilleni tashkil etgan bo'lsa, 2006 yilda esa necha promillega teng bo'lган?
2. 2006 yil sarhisobi bo'yicha respublikamizning qaysi hududlarida go'daklar o'limi nisbatan yuqori darajada bo'lган?

3. 2006 yil sarhisobi bo'yicha respublikamizning qaysi viloyatlarida go'daklar o'limi minimal ko'rinishga ega bo'lgan?
4. 2006 yil sarhisobi bo'yicha respublikamizning ayrim hududlarida go'daklar o'limi nisbatan yuqori darajada bo'lganiga qanday holatlar ta'sirini ko'rsatgan?
5. O'zbekiston mintaqalarida 1991-2006 yillar misolida go'daklar o'limining o'rtacha darajasi kuzatilganda turli tafovutlar ayon bo'lgan. Masalan, Quyi Amudaryo mintaqasining aholisi orasida go'daklar o'limining mustaqillik davridagi o'rtacha demografik tarixida boshqa regionlardan yuqori daraja kuzatilgan. Buni qanday izohlash mumkin?
6. Mustaqillikning dastlabki sakkiz yilida go'daklar o'limi yuqori bo'lgan, ya'ni mustaqillikning keyingi sakkiz yilidan necha promillega ko'p yuz bergen?
7. Mustaqillik davridagi siyosat, ayniqsa Orol bo'yi aholisini himoya qilishga bag'ishlangan chora-tadbirlar, onalik va bolalikni muhofaza qilinishi natijasida go'daklar o'limining kamayishi qanday yuz berdi?
8. Janubiy mintaqada go'daklar o'limining nisbatan yuqori bo'lishiga sabab bo'luvchi omillarni aniqlang.
9. Go'daklar o'limining eng quyi darajasi qaysi mintaqada kuzatilgan?
10. Go'daklar ko'proq qaysi kasalliklar sababli nobud bo'lgan?
11. Nafas olish yo'li kasalliklari tufayli va perinatal (0,6 kunlik) davrida nobud bo'lganlar qaysi hududlarda respublikaning boshqa hududlariga nisbatan yuqori edi?
12. Farzand ko'rish uchun biologik maqbul yosh necha yosh hisoblanadi?
13. Ona va bola salomatligini saqlash borasida faqat farzand tug'ilishidagi ayol yoshigina emas, balki har bir farzand tug'ilishi orasidagi ... ham muhim o'rin tutadi.
14. Ilmiy-amaliy kuzatuvlar farzand tug'ilganidan so'ng ona organizmi homila rivojlanishi uchun sarflagan biologik

imkoniyatlarini to‘liq tiklab olishi uchun tug‘ish oralig‘idagi davr necha yil bo‘lishi kerak?

15. Bolani sog‘lom tug‘ilishi uchun mutaxassislar qanday maslahatlar beradilar?

16. 1991 yilda shaharlarda tug‘ilish koeffitsienti necha promillega teng bo‘lgan?

17. 1991 yilda qishloqlarda tug‘ilish koeffitsienti necha promillega teng bo‘lgan?

18. 1991 yilda shaharlar bilan qishloqlarda tug‘ilish koeffitsientidagi farq necha promilleni tashkil etgan?

19. 1991 yildan boshlab 16 yil ichida shaharlar bilan qishloqlardagi tug‘ilish koeffitsientidagi farq qisqarib bordimi yoki ko‘paydimi?

20. O‘zbekistonning qaysi hududlarida 2005 yilda tug‘ilish darajasi respublika darajasidan yuqoriligi qayd etilgan?

21. Surxondaryo viloyatidagi qishloq aholisi jami aholining necha foizini tashkil etgan?

22. Qishloqlarda tug‘ilishning eng yuqori darajasi qaysi viloyatda kuzatilgan?

23. Qaysi viloyat qishloqlari tug‘ilishning eng past ko‘rsatkichiga ega edi?

24. 2005 yilda shahar aholisining tug‘ilish darajasi bo‘yicha eng yuqori daraja qaysi viloyatga to‘g‘ri kelgan?

25. 2005 yilda shahar aholisining tug‘ilish darajasi bo‘yicha eng quyi daraja qaysi viloyatga to‘g‘ri kelgan?

26. 1991-2005 yillar oralig‘idagi qaysi yuqori ma’muriy hududlardagi shahar aholisining tug‘ilishdagi o‘rtacha darajasi respublika ko‘rsatkichidan balandligi kuzatilgan?

27. 1991-2005 yillar oralig‘idagi qaysi yuqori ma’muriy hududlar shahar aholisining tug‘ilishdagi o‘rtacha darajasi bo‘yicha respublikada eng past ko‘rsatkich xukm surgan.?

28. 1991-2006 yillarda shahardagi o‘lim darajasi qishloqlardan doimo nisbatan ... (yuqori yoki quyi daraja) e’tirof etiladi?

29. 2005 yilda shaharlarda o'lim 6,6 promillega teng bo'lsa, qishloqlarda bu 4,7 promilleni tashkil etdi. O'rtacha farq necha promille bo'lgan?
30. Shahar aholisi orasida o'limning o'rtacha darajasini past ko'rinishi qaysi mintaqada yuz bergen?

XULOSA

O'zbekiston Respublikasining demografik tarixi misolida 1991-2006 yillar oralig'idagi demografik jarayonlarni o'rganish va uning tahlili bo'yicha xulosalar quyidagilarda o'z ifodasini topdi:

1. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarda yuzaga kelgan demografik vaziyat uning tarixi davomidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, demografik jarayonlar va shart-sharoitlar hamda ushbu hududda yashovchi qardosh xalqlar shuningdek, boshqa millatlarning o'ziga xos demografik xususiyatlari ta'sirida tarkib topdi va rivojlanib bormoqda.

2. O'rganilgan davrda respublika hududlaridagi ayollarning tug'ish yoshida o'zgarish yuz berdi. Ayollarda tug'ish ko'rsatkichining qisqarishini yuqori ko'rinishi 15-19 va 45-49 yoshlarga to'g'ri kelgan. Oilalarda beshinchi, oltinchi va undan keyingi farzandlar tug'ilishi kamaydi va to'xtadi. Yosh bosqichlari bo'yicha ayollarning tug'ish ko'rsatkichlari kamayib bordi.

3. Aholining o'sish manbalaridan biri uning jins tarkibini mutanosibligidir. Respublika aholisi tarkibida erkaklar va ayollar salmog'i tenglashdi. Albatta, ushbu jarayonlar aholi o'rtasida o'rtacha umr ko'rish darajasining o'zgarishi, bir yoshgacha go'daklarda, ayniqsa o'g'il bolalarda o'lim holatini kamayishi, jamiyatdagi sog'lom turmush tarzi sabablidir.

4. 1991 yilga nisbatan 2006 yilda nikohlar soni kamaygan. Nikohning bekor bo'lish darajasida ham kamayish yuz bergen.

5. Aholi orasida qon va qon yaratish a'zolari kasalliklari, nafas olish a'zolari, ovqat hazm qilish a'zolari, endokrin tizimi, siyidik tanosil tizimi kasalliklari aholi orasida nisbatan ko'proq tarqalgan. Ayniqsa, katta yoshdagilarda yurak-qon tomir kasalliklari o'lim va nogironlikka olib keluvchi omil bo'lган.

Go‘daklarda ko‘proq nafas olish a’zolari kasalliklari tufayli va perinatal davridagi o‘lim kuzatilgan.

6. Mehnatga layoqatli aholi zichligi bo‘yicha Andijon viloyati yetakchi bo‘lib, bir kvadrat kilometrga 304,4 nafar mehnatga layoqatli aholi to‘g‘ri kelgan.

7. Mustaqillik yillarida fuqarolarni demokratik huquqlari nazariy va amaliy yechimini topgandan so‘ng sobiq tuzum siyosati bosimi bilan yashagan turli millat vakillari o‘z tarixiy vatanlariga qaytishi jarayonlari yuqori ko‘rinishda yuz berdi hamda mustaqillik arafasida va undan keyingi yillarda ommaviy tus oldi. Bu holat migratsiya darajasining yuqori ko‘rsatkichlari bilan ifodalanadi. Ushbu jarayonlarda qatnashuvchilarining ehtiyojlari qondirilgach, migratsiya ko‘rsatkichlarining ham pasayishi yuz berdi. Bundan tashqari, respublika migratsiya harakatlarining boshqa ko‘rinishlari namoyon bo‘la boshladi, bu ham bo‘lsa mehnat migratsiyasidir. Migratsiya jarayonlarining kuchayuvidagi ob‘ektiv sabablarga respublika doirasida, viloyat doirasida, viloyatlararo migratsiyalarni ham kiritish mumkin. Bu harakatlar ham ixtiyoriy ravishda aholi ehtiyojlaridan kelib chiqib amalga oshirildi. Migrantlar milliy tarkibi bilan birga oilaviy tarkibi, sifat tarkibi va miqdori, yosh va jins tarkibi, mehnatga layoqatlilik darajasi, ularni migratsiya harakatlariga yo‘naltingan turli xil ehtiyojlari bilan bir-biridan farqlangan. Asosiysi, mustaqillik yillarida respublikada olib borilayotgan xalqchil siyosat natijasida aholining migratsiya harakatlariga adolatona munosabat bildirilib, fuqarolarni ehtiyojlari keng miqyosda qondirilib kelinmoqda.

8. Respublikada yevropa millatiga mansub aholi o‘tgan yillarda son jihatdan qisqarib borgan. Aholi sonida rus, ukrain, belorus, ozarbayjon, tatar, yevrey, nemis va boshqirdlarni ulushi pasayib borgan, bunga sabab, ularni migratsiyada ishtirokining yuqoriligi hamda yosh tarkibi bilan bog‘liq holda tug‘ilish, o‘lim darajalari edi. Kelganlarga nisbatan ketganlarning ustunligi

barcha viloyatlarda kuzatiladi. Hududlarning migratsiya harakatlarida turli millat vakillarining ishtirokida mehnatga layoqatlilar salohiyati yuqori bo‘lgan.

Respublika demografik vaziyatining barqarorligiga xizmat qiladigan quyidagi taklif va tavsiyalarni berish maqsadga muvofiq:

- respublika hududlaridagi mehnat bozorini mukammal o‘rganib borib, ishchi kuchidan foydalanishning yangi yo‘nalishlarini hayotga tadbiq qilish;

- o‘qishni bitirayotgan yoshlarni ish bilan ta’minalash chora-tadbirlari yanada kuchaytirish, maishiy xizmat ko‘rsatish ob’ektlarini qishloqlar hududida kengroq joriy etish;

- demografik jarayonlardagi muammolar hamda uning istiqboliga bag‘ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferensiyasini o‘tkazish, bu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish.

Test topshiriqlari:

1. Aholimizning o‘rtacha umr ko‘rish darajasi dastlabki yigirma yil davomida necha yoshga yetgan?
A). 67 yoshdan 73 yoshga
V). 68 yoshdan 73 yoshga
S). 68 yoshdan 74 yoshga
D). 67 yoshdan 74 yoshga
2. Ayollarning o‘rtacha umr ko‘rish darajasi dastlabki yigirma yil davomida necha yoshga yetgan?
A). 75 yoshga
V). 73 yoshga
S). 74 yoshga
D). 76 yoshga
3. Onalar o‘limi necha barobardan ziyodga kamaydi?
A). 2
V). 2,5
S). 3
D). 1,6
4. Bolalar o‘limi necha barobar kamaydi?
A). 3
V). 2,5
S). 2
D). 1,6
5. Aholi sonining jadal ko‘payib borishi azaldan O‘zbekistonga xos xususiyat bo‘lib kelgan. Masalan, 1991 yili aholi soni necha mingga yetdi?
A). 20607,7
V). 21607,8
S). 20707,7
D). 20907,8
6. 2006 yilda O‘zbekiston aholisi qanchaga yetdi?
A). 26312,7 mingga

V). 27607,8 mingga

S). 25712,7 mingga

D). 24907,8 mingga

7. Tug‘ilish darajasining yuqoriligi nima bilan izohlanadi?

A). barcha javoblar to‘g‘ri

B). aholi orasida serfarzandlikka moyil bo‘lgan o‘zbeklar va mahalliy millat vakillarining ko‘pchilikni tashkil etishi

S). aholini yarmidan ko‘pi qishloqlarda yashashi

D). jins tarkibini ijobiy tomonga o‘zgarishi

8. Tug‘ilish darajasining yuqoriligi nima bilan izohlanadi?

A). barcha javoblar to‘g‘ri

B). boshqa xalqlardan farqli o‘laroq, mahalliy millatlar jumladan, o‘zbeklar e’tiqod qiladigan islom dini ham, asrlardan beri shakllanib kelgan urf-odatlar ham ko‘p bolalikni qo‘llab-quvvatlaydi

S). halqimizni nikohni muqaddas deb hisoblashi

D) xalqimizning oila qurib, farzand ko‘rishga intilishi

9. Respublikamizning demografik jarayonlarini shakllanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan sabablarni ko‘rsating.

A). barcha javoblar to‘g‘ri

V). sovet tuzumi sharoitida yetilib qolgan muammolar, ularni bartaraf etish davridagi qiyinchiliklar

S). iqtisodiyotni izga tushirish uchun ketgan vaqt oralig‘idagi iqtisodiy muammolar

D). mustaqillik davrida yurtimizda sodir bo‘lgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy va boshqa o‘zgarishlar

10. Respublikamiz demografik vaziyati o‘ziga xos bo‘lib, boshqa davrlardan farq qilishi nima bilan izohlanadi

A). Barcha javoblar to‘g‘ri

V). aholi sonining o‘sish sur’atini pasayishi, tug‘ilish, o‘limning kamayishi, zichligi, hududiy joylashuvini o‘zgarishi

S). yosh, jins tarkibidagi mutanosiblik, o‘rtacha umr ko‘rish darajasining ortishi, nikoh va ajralishning kamayishi

- D). shahar aholisi o'sishining qishloq aholisiga nisbatan sekinlashishi, migratsiyaning faollashuvi
11. Statistik ma'lumotlarning ko'rsatishicha, 1991-2006 yillarda O'zbekiston aholisi necha million kishiga ko'paydi?
- A). 5,7
 - V). 6,1
 - S). 5,4
 - D). 5,9
12. 1991-2006 yillarda O'zbekistonda qishloq aholisining mutlaq soni qancha million kishiga ko'paydi?
- A). 4,8 million
 - V). 4,9 million
 - S). 4,7 million
 - D). 4,6 million
13. 1991-2006 yillarda O'zbekistonda shahar aholisining soni qancha million kishiga ko'paydi?
- A). 1,2 million
 - V). 1,3 million
 - S). 1,4 million
 - D). 1,5 million
14. Aholi soni bo'yicha O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida nechanchi o'rinni egallaydi?
- A). Birinchi
 - V). Ikkinchi
 - S). Uchinchi
 - D). To'rtinchi
15. Aholi soni bo'yicha O'zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) davlatlari orasida nechanchi o'rinni egallagan?
- A). Uchinchi
 - V). Ikkinchi
 - S). Birinchi
 - D). To'rtinchi

16. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) davlatlari orasida aholi eng ko'p hudud qaysi?
- A). Rossiya Federatsiyasi
 - V). Ukrainada
 - S). Qozog'iston Respublikasi
 - D). Belorussiya
17. Rossiya Federatsiyasida MDH aholisining yarmidan ko'pini ya'ni ... foizni tashkil etgan?
- A). 51,6 %
 - V). 50,6 %
 - S). 51,8 %
 - D). 50,9 %
18. Qaysi hududda MDH aholisining 17,3 foizi yashagan?
- A). Ukrainada
 - V). Rossiyada
 - S). Qozog'iston Respublikasida
 - D). Belorussiyada
19. Qaysi davlat aholi soni bo'yicha Rossiyadan keyingi ikkinchi o'rinni egallagan.
- A). Ukrainada
 - V). Rossiyada
 - S). Qozog'iston Respublikasida
 - D). Belorussiyada
20. MDH aholisini 5,3 foizini qaysi davlat tashkil etgan?
- A). Qozog'iston Respublikasi
 - V). Rossiya Federatsiyasi
 - S). Ukraina
 - D). Belorussiya
21. MDH aholisini 3,6 foizini qaysi davlat tashkil etgan?
- A). Belorussiya
 - V). Ukrainada
 - S). Armaniston
 - D). Turkmaniston

22. MDH aholisini 2,9 foizini qaysi davlat tashkil etgan?
- A). Ozarbayjon
 - V). Tojikiston
 - S). Armaniston
 - D). Turkmaniston
23. MDH aholisini 2,3 foizini qaysi davlat tashkil etgan?
- A). Tojikiston
 - V). Ozarbayjon
 - S). Armaniston
 - D). Turkmaniston
24. MDH aholisini 9,0 foizini qaysi davlat tashkil etgan?
- A). O'zbekiston
 - V). Tojikiston
 - S). Armaniston
 - D). Ozarbayjon
25. O'zbekiston maydoni MDH dagi qaysi davlatlarning maydonidan kichik hajmda?
- A). Rossiya, Qozog'iston, Ukraina, Turkmanistondan
 - V). Rossiya, Ukraina, Qozog'istondan
 - S). Rossiya, Tojikiston, Ukraina, Turkmanistondan
 - D). Rossiya, Qozog'iston, Turkmaniston, Ukraina, Tojikistondan
26. O'zbekiston aholi zichligi bo'yicha qaysi davlatlardan keyingi o'rinni egallaydi?
- A). Armaniston, Moldaviya, Ozarbayjon, Ukraina, Gruziyadan
 - V). Tojikiston, Armaniston, Moldaviya, Ozarbayjon, Ukraina, Gruziyadan
 - S). Ozarbayjon Armaniston, Ukraina, Gruziya Tojikistondan
 - D). Moldaviya, Tojikiston, Armaniston, , Ozarbayjon, Gruziyadan
27. O'zbekistonda aholi sonining o'sishi MDH mamlakatlari ichida qaysi davlatlardan keyin uchinchi o'rinda bo'lган?
- A). Turkmaniston va Tojikiston Respublikalaridan keyin

- V). Tojikiston, Armaniston. Respublikalaridan keyin
S). Tojikiston, Moldaviya Respublikalaridan keyin
D). Ozarbayjon, Ukraina, Gruziyadan keyin
28. MDHning qaysi davlatlarida aholining kamayib borishi kuzatiladi?
- A). Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Gruziya, Moldaviyada
V). Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Tojikiston, Armanistonda
S). Moldaviya, Ozarbayjon, Ukraina, Rossiya, Belorussiya, Gruziyada
30. O'zbekistonda Markaziy Osiyoning necha foiz aholisi yashaydi?
- A). 42 foiz
V). 42 foiz
S). 42 foiz
D). 42 foiz
31. O'zbekiston aholisi soni Qozog'istonga nisbatan necha marta ko'p?
- A). 1,4 marta
V). 1,5 marta
S). 1,6 marta
D). 1,7 marta
32. O'zbekiston aholisi soni Tojikistonga nisbatan necha marta ko'p?
- A). 5,2 marta
V). 5,1 marta
S). 5,3 marta
D). 5,4 marta
33. O'zbekiston aholisi soni Qirg'izistonga nisbatan necha marta ko'p?
- A). 3,9 marta
V). 4,1 marta
S). 5,3 marta
D). 3,8 marta

34. O‘zbekiston aholisi soni Turkmanistonga nisbatan necha marta ko‘p?
- A). 5,2 marta
 - V). 4,1 marta
 - S). 4,3 marta
 - D). 5,3 marta
35. O‘zbekistonda aholi sonining mutlaq o‘sishi 1990-1995 yillarda o‘rtacha yiliga necha ming kishini tashkil etgan?
- A). 500
 - V). 450
 - S). 360
 - D). 420
36. Tug‘ilishning kamayib borishi besh-olti va undan ko‘p farzandli oilalar salmog‘ining ... borishida ham kuzatiladi.
- A). qisqarib borishi
 - V). ko‘payib borishi
 - S). Mutloq saqlanishi
 - D). Salohiyatining ortib borishida
37. O‘zbekistonning aholisi sonida qishloqlarning ulushi baland bo‘lib kelishiga sabablarni ko‘rsating.
- A). barcha javoblar to‘g‘ri
 - V). shaharlarga nisbatan qishloqlarda aholi salmog‘i va tabiiy o‘sishi yuqori bo‘lgan
 - V). respublika shahar aholisida tug‘ilish hajmi qishloq aholisiga nisbatan kam bo‘lgan
 - S). respublika shahar aholisida qishloq aholisiga nisbatan migratsiya jarayonlarida ishtiroki yuqori bo‘lgan
 - D). shaharlarda aholi kam bo‘lgan
38. Respublika miqyosida eng ko‘p shahar aholisi qaysi hududlarga to‘g‘ri kelgan?
- A). Toshkent shahrida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent, Navoiy, Namangan viloyatlarida

- V). Toshkent shahrida, Toshkent, Navoiy, Namangan viloyatlarida
- S). Toshkent shahrida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent, Namangan viloyatlarida
- D). Toshkent shahrida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Samarqand, Xorazm viloyatlarida
39. Respublikamizning qaysi viloyatlarda urbanizatsiya darajasi respublika darajasidan past ko‘rsatkichda edi?
- A). Qashqadaryo, Samarqand, Xorazm viloyatlarida
- V). Navoiy, Namangan, Qashqadaryo, Samarqand, Xorazm viloyatlarida
- S). Qashqadaryo, Toshkent, Navoiy, Namangan viloyatlarida, Samarqand viloyatlarida
- D). Namangan Qashqadaryo, Samarqand, Xorazm Navoiy viloyatlarida
40. Respublikamizning viloyatlarida urbanizatsiya darajasi respublika darajasidan past ko‘rsatkichda bo‘lganiga sabab nimalarda edi?
- A). Barcha javoblar to‘g‘ri
- V). ushbu mintaqalar O‘zbekiston hududining voha va vodiylarida joylashgan
- S). Ushbu mintaqalarda dehqonchilik qilish uchun imkoniyatlar avvalo, unumdon yerlarning ko‘pligi aholining asosiy qismini qishloq hududlarida joylanishiga zamin yaratgan
- L). qishloqlarda tub joy aholisining yashab turgan joylariga bog‘lanib qolganligi bu joylarda migratsiya harakatini cheklaydi
41. O‘zbekistonda 2006 yilda 1991 yilga nisbatan urbanizatsiya darajasi 4,3 foizga kamayishi ayrim viloyatlarda shahar aholisini boshqa viloyatlarga nisbatan ko‘proq darajada kamaygani bilan bog‘liq. Qaysi viloyatlar nazarda tutilyapti?
- A). Samarqand, Toshkent, Xorazm, Buxoro, Sirdaryo
- V). Namangan, Samarqand, Toshkent, Xorazm, Buxoro
- S). Samarqand, Toshkent, Namangan, Buxoro, Sirdaryo

- D). Navoiy, Namangan, Xorazm, Buxoro, Samarqand, Sirdaryo
42. 1993 yilda Toshkent shahri va Toshkent viloyatida respublika aholisining qariyb necha foizi yashagan?
- A). 23 %
 - V). 26,9 %
 - S). 19,7 %
 - D). 13,4 %
43. 1993 yilda Farg'onada vodiysida respublika aholisining qariyb necha foizi yashagan?
- A). 26,9 %
 - V). 23 %
 - S). 19,7 %
 - D). 13,4 %
44. 1993 yilda Zarafshon vodiysi viloyatlarida respublika aholisining qariyb necha foizi yashagan?
- A). 19,7 %
 - V). 26,9 %
 - S). 23 %
 - D). 13,4 %
45. 1993 yilda Jizzax cho'li va Mirzacho'lda respublika aholisining qariyb necha foizi yashagan?
- A). 6,3 %
 - V). 6,9 %
 - S). 9,7 %
 - D). 13,4 %
45. 1993 yilda O'zbekistonning janubiy viloyatlarida respublika aholisining qariyb necha foizi yashagan?
- A). 13,4 %
 - V). 26,9 %
 - S). 19,7 %
 - D). 23 %
46. O'zbekiston bo'yicha salkam uch million aholi bo'lgan hududlarni toping.

- A). Barcha javoblar to‘g‘ri
V). Samarqand
S) Farg‘ona
D) Samarqand, Farg‘ona
47. Navoiy viloyatida respublika aholisining necha foizi yashagan?
- A). 3,1
V). 3,9
S). 4,1
D). 3,2
48. Maydoni eng kichik bo‘lgan Andijon viloyatida mamlakatimiz aholisining necha foizi istiqomat qilgan?
- A). 9,0
V). 3,1
S). 10,2
D). 9,6
49. Mintaqalarda aholi sonini o‘sishining yilma-yil tahliliga ko‘ra, Zarafshon regioni aholi sonini miqdori bo‘yicha 1994 yildan boshlab Toshkent vohasidan ildamlab ketgan. Bunga sabab nima?
- A). barcha javoblar to‘g‘ri
V). ushbu holatni tug‘ilish bilan bog‘lash mumkin
S). ushbu holatni o‘lim holati bilan bog‘lash mumkin
D). ushbu holatni tabiiy ko‘payish darajalari va migratsiya harakatlarining manfiy qoldig‘i bilan izohlash mumkin.
50. Aholining salmog‘i jihatidan eng past ko‘rsatkich qaysi viloyatlarida kuzatilgan?
- A). Sirdaryo, Navoiy, Jizzax
V). Sirdaryo, Jizzax
S). Sirdaryo
D). Navoiy
51. Aholining salmog‘i jihatidan eng past ko‘rsatkich Sirdaryo, Navoiy, Jizzax viloyatlarida kuzatilgan, buni sababi nimada?

A). ushbu hududlarda XX asrning 70-yillarida Mirzacho‘lni o‘zlashtirilishi natijasida aholi ko‘chib kela boshlaganidan keyingina uning demografik holati o‘zgargan.

V). ushbu hududlarda sovet tuzumi yillarida aholini demografik to‘ldirish siyosati aynan ushbu hududlarga nrisbatan amalga oshirilgani bilan izohlanadi?

S). sovet tuzumi davrida aholiga bo‘sh yerlar aynan ushbu hududlarda ko‘proq berilishi hisobiga

D). aholining dehqonchilikni amalga oshirishiga berilgan imkoniyatlar bilan bog‘liq.

52. Respublikada aholining demografik salohiyati past hududlarni qanday izohlash mumkin?

A). barcha javoblar to‘g‘ri

V). bu hududlarning ayrimlari sobiq tuzumning bo‘sh yerlarni o‘zlashtirish siyosati natijasida tashkil etilgan tumanlar bo‘lganligi bilan izohlanadi. S). respublikani mustaqillik yillaridagi demografik siyosati natijasida aholi talablarining inobatga olinishi

D). hududlarning imkoniyatidan kelib chiqib bir tumanni ikkiga bo‘linishi ham tuman aholisi sonida o‘z aksini ko‘rsatadi.

53. 1991 yilda respublika aholisi bir yilda necha foizga o‘sdi?

A). 101,9 foizga

V). 100,8 foizga

S). 102,8 foizga

D). 103,7 foizga

54. Janubiy region aholi o‘sishining xususiyatlarini aytib o‘ting

A). Ushbu region aholi o‘sishida eng yuqori darajasiga ega

V). Ushbu region aholi o‘sishida boshqa mintaqalarni qoplagan

S). Ushbu region O‘zbekiston aholisini o‘sishida muhim demografik ahamiyat kasb etgan.

55. Toshkent shahri aholisining o‘sishi 1991 yilda manfiy tomonga o‘zgargan. Bu holat o‘rganilayotgan yillarda takrorlanib borgan, bunga nima ta’sir etgan?

- A). barcha javoblar to‘g‘ri
V). asosan tug‘ilish darajasining pastligi
V). tashqi migratsiya ta‘sir etgan
S). demografik jarayonlar ta‘sir etgan
56. Toshkent shahri aholisining o‘sishi 1991 yilda manfiy tomonga o‘zgargan. Bu holat o‘rganilayotgan yillarda takrorlanib borgan, bunga asosan tug‘ilish darajasining pastligi va tashqi migratsiya ta‘sir etgan. Bundan tashqari qanday sabablar demografik holatni biroz o‘zgarishiga sabab bo‘lgan
- A) barcha javoblar to‘g‘ri
V). yuzaga kelgan atrof-muhitni ifloslanishi
S). ayrim joylarda ma’lum darajada tabiat muvozanatini buzilishi
D). ekologik vaziyatning keskinlashuvi.
57. Respublikaning qaysi hududida aholi o‘limi boshqa hududlarga nisbatan yuqoriroq bo‘lib, aholini tabiiy ko‘payishiga o‘zining salbiy ta‘sirini ko‘rsatib kelgan?
- A). Qoraqalpog‘iston Respublikasida
B). Xorazm viloyatida
S). Surxondaryo viloyatida
D). Qashqadaryo viloyatida
58. Aholi o‘sishida ma’lum bo‘lgan tafovutlarga demografik vaziyat, ya’ni ... ta‘sir ko‘rsatgan.
- A). barcha javoblar to‘g‘ri
V). nikoh, tug‘ilish, o‘lim, migratsiya
S). aholining yosh va jins tarkibidagi o‘zgaruvchanlik
D). tabiiy sharoit, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot imkoniyatlari
59. Aholi ko‘payib borishi sababli uning zichligi ham ortib borgan. Aholining zichligi O‘zbekiston hududlarida turli ko‘rinishga ega. Bunga sabab nima?
- A). barcha javoblar to‘g‘ri
V). aholining yashashi uchun qulay sharoitlarning mavjudligi
S). azaldan o‘zlashtirilganligi

- D). dehqonchilik qilish uchun sharoitlari yetarli joy ekanligi
60. Eng aholi siyrak joylashgan hududlar respublika bo'yicha quyidagi hududlar hisoblanib, mamlakat hududining yarmidan ko'pini egallagan.
- A). barcha javoblar to'g'ri
 - V). Navoiy viloyati
 - S). Qoraqalpog'iston Respublikasi
 - D). Navoiy viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi
61. Respublikada aholining o'rtacha umr ko'rish darajasi 1991 yilda necha yoshni tashkil etgan?
- A). 70,5
 - V). 71,2
 - S). 69,1
 - D). 70,9
62. Respublikada aholining o'rtacha umr ko'rish darajasi 1994 yilda necha yoshni tashkil etgan?
- A). 68,8
 - V). 71,2
 - S). 69,1
 - D). 70,9
63. Respublikada aholining o'rtacha umr ko'rish darajasi 2006 yilda necha yoshni tashkil etgan?
- A). 72,5
 - V). 71,2
 - S). 69,1
 - D). 70,9
64. Viloyatlar bo'yicha 2006 yilda eng yuqori aholining o'rtacha umr ko'rish darajasi qaysi viloyatda kuzatilgan?
- A). Jizzax
 - V). Qashqadaryo
 - S). Surxondaryo
 - D). Buxoro

65. Respublika bo'yicha 1991-2006 yillar tahlillariga ko'ra, mazkur yillarda o'rtacha umr ko'rish darajasi bo'yicha o'n olti holatdan o'n ikkitasida qaysi viloyat yetakchi hisoblangan?
- A). Qashqadaryo
 - V). Jizzax
 - S). Surxondaryo
 - D). Buxoro
66. Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida tug'ilishni nisbatan yuqoriligi qanday izohlanadi?
- A). barcha javoblar to'g'ri
 - V). aholi tarkibida yoshlari ulushini kattaligi
 - S) qirq, yetmish va undan yuqori yosh guruhlarining salmog'i respublikani boshqa hududlaridan past ko'rsatkichga egaligi
 - D). o'lim darajasini nisbatan pastligi
67. Yaponiyada aholining o'rtacha umr ko'rishi necha yosh bo'lgan?
- A). 81 yosh
 - V). 80,4 yosh
 - S). 79,9 yosh
 - D). 70,3 yosh
68. Ispaniyada aholining o'rtacha umr ko'rishi necha yosh bo'lgan?
- A). 80,4 yoshni
 - V). 81 yosh
 - S). 79,9 yosh
 - D). 70,3 yosh
69. Shvesiyada aholining o'rtacha umr ko'rishi necha yosh bo'lgan?
- A). 80,1 yosh
 - V). 80,4 yosh
 - S). 79,9 yosh
 - D). 70,3 yosh

70. Italiyada aholining o‘rtacha umr ko‘rishi necha yosh bo‘lgan?
- A). 79,9 yosh
 - V). 80,4 yosh
 - S). 81 yosh
 - D). 70,3 yosh
71. Erkaklarning o‘rtacha umr ko‘rishi O‘zbekistonda necha yosh bo‘lgan?
- A). 70,3 yosh
 - V). 70,4 yosh
 - S). 71,9 yosh
 - D). 70,3 yosh
72. Ayollarning o‘rtacha umr ko‘rishi O‘zbekistonda necha yosh bo‘lgan?
